

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 29-aprel chorshanba №17(9602)

TRANSMILLIY NARKOTAHDID VA YOSHLAR XAVFSIZLIGI:

*muammo,
tahlil va
amaliy
yechimlar*

2-3 -betlar



*O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?*



O'quvchi bilan o'qituvchi orasida qiyin vaziyat bo'lmazligi kerak. Buning uchun har ikki tomon ham o'z haddini bilishi, o'rtadagi qizil chiziq qonunlar asosida belgilab qo'yilishi shart. Aks holda, ular bir-biridan kaltak yeb yuraveradi.

Xudoyberdi KOMILOV



Yaxshi o'qituvchi bo'lishning mezonlari ko'p. Avvalo, u o'z mutaxassisligi va fanini mukammal bilishi, murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda o'quvchilarga yetkaza olish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Shuningdek, ustozlikda tajriba, sabr-toqat va bolajonlik ham muhim fazilatlaridan hisoblanadi. Bugun zamon bilan hamnafas bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilar oldida yutqazadi.

Gulchehra ASHUROVA

Dolzarb mavzu



Bugun giyohvandlik muammosi faqat huquqbuzarlik yoki tibbiy holat doirasida qaraladigan masala emas. U jamoat salomatligi, yoshlar tarbiyasi, oila barqarorligi va milliy xavfsizlikka birdek daxl qiluvchi transmilliy tahdidga aylandi. Samarqandda o'tgan global forum esa ushbu muammoning miqyosini yana bir bor ochib berish bilan birga unga qarshi kurashishda yangi yondashuvlar va amaliy yechimlar zarurligini ko'rsatdi.

Xavf ko'rinmay keladi, lekin chuqur ildiz otadi

Bugun dunyoda inson hayotiga raxna solayotgan tahdidlar ko'p. Ayrimlari ochiq ko'rinadi, ayrimlari esa sekin, sezilmasdan, ammo chuqur ildiz otib kirib keladi. Giyohvandlik ham ana shunday ofatdir. U avval tanani emas, ongni zaharlaydi; avval salomatlikni emas, iroda va maqsadni yemirishdan boshlaydi. Eng achinarlisi, bu illat birgina shaxs taqdiri bilan cheklanib qolmaydi – u oila osoyishtaligi, jamiyat barqarorligi, millat kelajagiga zarba beradi. Shu bois giyohvandlikka qarshi kurashish bugun faqat tibbiy yoki huquqiy masala emas, balki jamoat salomatligi, ma'naviy tarbiya va milliy xavfsizlik bilan bog'liq umumiy vazifaga aylandi.

Ayniqsa, raqamli davr bu muammo-ga yangi tus bermoqda. Kecha yashirin yo'llar bilan tarqatilgan zahar bugun internet tarmoqlari, shifrlangan muloqot, anonim kanallar, kriptovalyutalar va "kontaktsiz savdo" orqali yoshlarga yaqinlashmoqda. Demak, bu xavfga qarshi kurash ham eskicha emas, zamonaviy, tizimli va xalqaro hamkorlikka tayan-gan yo'l bilan olib borilishi shart. Narkotiklar savdosining transchegaraviy va virtual tus olayotgani, jinoiy guruhlar shifrlangan aloqa kanallari va murakkab moliyaviy vositalardan foydalanayot-gani bugungi tahdid qiyofasini yaqqol namoyon etmoqda.

Samarqand forumi: muammoni anglashdan amaliy yechimlar sari

Ana shunday dolzarb sharoitda joriy yilning 20-21-aprel kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya-si huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hamkorligida "Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish" mavzusidagi global forum bo'lib o'tdi. Nufuzli anjumanda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, xorijiy davlatlar vakillari, soha mutaxassislari va 500 ga yaqin ishtirokchi qatnashdi. Forumda BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi ijrochi direktor o'rinbosari Bo Matiasen, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Tedros Gebreyesus, Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasi Bosh kotibi Stefano Berterame kabi xalqaro miqyosdagi shaxslarning ishtirok etgani uning ahamiyatini yanada oshirdi.

Forumda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning murojaati o'qib eshittirildi. Unda bugungi kunda narkotiklar savdosi transchega-

raviy va virtual xarakter kasb etayotgani, bu xavfga qarshi kurashish butun insoniyatning umumiy mas'uliyati ekani alohida ta'kidlandi. Davlat rahbari bu kurashga shunchaki navbatdagi kompaniya emas, balki umuminsoniy burch sifatida qarab, shunday dedi: *"Giyohvandlikka qarshi kurash – bu faqat bir davlatning emas, balki butun insoniyatning umumiy mas'uliyati va majburiyatidir"*.

Raqamlar ortida buzilgan taqdirlar turibdi

Forumning mohiyatini tushunish uchun, avvalo, muammoning ko'lami-ni anglash kerak. Forumda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 300 milliondan ortiq odam giyohvand moddalar ta'siriga tushib qolgan, har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illat qurboniga aylanmoqda. Bu raqamlar quruq statistika emas, aksincha buzilgan taqdirlar, yo'qotilgan orzular, parokanda oilalar, jamiyat uchun boy berilgan insoniy salohiyat demakdir. Forumda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakillari ham bu illat inson salomatligi bilan birga dunyo xalqlari genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidladi.

Eng og'riqli jihat bu xavfning yoshlarga tobora yaqinlashib borayotganida-dir. Forum materiallarida qayd etilganidek, narkojinoyatlarning uchdan biri yoshlar tomonidan sodir etilmoqda, asosiy xavf guruhini 15 yoshdan 30 yosh-gacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Bu raqamning o'ziyoq masalaning qanchalik og'irligini ko'rsatadi. Chunki narkotik insonni faqat salomatligidan mahrum qilmaydi – uning irodasini zaiflashtiradi, tafakkurini susaytiradi, maqsadini xiralashtirib, hayotga bo'lgan ishonchini yemirib boradi. Prezidentning **"Bir bola yo'ldan chiqsa – jamiyat izdan chiqadi"** degan fikri ana shu ijtimoiy haqiqatning o'tkir va xalqchil ifodasidir.

Nega yoshlar eng katta xavf guruhiga aylanmoqda?

Haqiqat shuki, bir navqironning giyohvandlik tuzog'iga tushib qolishi faqatgina uning shaxsiy muammosi bo'lib qolmaydi. Bu oila uchun dard, mahalla uchun tashvish, ta'lim muassasasi uchun yo'qotish, jamiyat uchun esa jiddiy xavf tug'diradi. Ta'limdan uzilish, intizomsizlik, yolg'on, ruhiy parokandalik, tajovuzkorlik, jinoiy muhitga kirib qolish, oiladan uzoqlashish – bularning barchasi bir qarashda ko'rinmas, ammo kelajakni yemiruvchi oqibatlardir. Ayniqsa, raqamli muhitda yoshlar avval qiziqish bilan yaqinlashadi, keyin "oson pul" vasvasasiga uchraydi, so'ng esa jinoiy tarmoqning bir bo'g'iniga aylanib qolishi mumkin.

Shu ma'noda narkotik – faqat zahar emas. U yoshlarning vaqti, niyati, maqsad-orzularini o'g'irlaydi. Kecha ilm

Transmilliy muammo, tahlil



olishi, kasb egallashi, oilasi va jamiyatga foyda keltirishi mumkin bo'lgan yigit yoki qiz bugun yengil daromad va yashirin tarmoqlar qurboniga aylanib qolishi mumkin. Mana shu jihat masalani faqat jinoyatchilik emas, tarbiya va ma'rifat muammosiga ham aylantiradi.

Yoshlar orasida narkomoyillikni kuchaytirayotgan omillar nimalardan iborat?

Yoshlar orasida giyohvand moddalarga berilish holatlarini faqat bir omil bilan izohlab bo'lmaydi. Bu muammo ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy, axborot-kommunikatsion va iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liq. Shu bois bu illatning oldini olish uchun, avvalo, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni to'g'ri anglash zarur.

Avvalo, ruhiy bo'shliq va ichki tayanchning susayishi eng muhim omil sanaladi. Bugun ayrim yoshlar muammoga duch kelganda tushunish, tinglash va dalda o'rniga ta'na, bosim, solishtirish yoki beparvolikka uchramoqda. Shaxslararo munosabatlarda egotsentrizmning kuchayib borayotgani, insonparvarlik kamayib borayotgani, tanqid va ayblashning ortishi, hatto yaqinlaridan ham psixologik yordam olmay qolayotgani ayrim yoshlarda yolg'izlik va ruhiy charchoqni kuchaytirmoqda. Ana shunday holatda giyohvand moddalar ba'zilar uchun lazzat emas, balki ichki og'riqdan vaqtincha qochish vositasiga aylanib qolishi mumkin.

Ikkinchi muhim omil – oilaviy muhitdagi yetishmovchiliklar. Oilada mehr, e'tibor, ishonch va muloqot yetarli bo'lmasa, farzandlar o'zini ruhiy jihatdan himoyasiz his qiladi. Doimiy janjal, hissiy sovuqlik, befarqlik, faqat tanqidga asoslangan tarbiya yoki farzandning ichki dunyosiga beparvo munosabat uni xavfli ta'sirlarga moyil qilishi mumkin.

Uchinchi omil – tengdoshlar bosimi va ijtimoiy muhit ta'siri. O'smirlik va yoshlik davrida inson tengdoshlar fikriga o'ta sezgir bo'ladi. "Bir marta sinab ko'r", "hamma qilib ko'rgan", "hech narsa bo'lmaydi" kabi aldovchi takliflar aynan ruhiy jihatdan zaif, e'tibor va tas-

diq izlayotgan yoshga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, raqamli muhit va axborot ta'siri bu muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Bugun narkotik tarqatuvchilari ijtimoiy tarmoqlar, anonim kanallar, messengerlar orqali "oson daromad" va dalari bilan yoshlarni o'z tarmog'iga tortmoqda. Axborot savodxonligi past bo'lgan yigit-qizlar bunday xavfni o'z vaqtida anglamay qolishlari mumkin.

Beshinchi omil – maqsadsizlik va hayotiy yo'nalishning noaniqligidir. Aniq orzu-maqсад, kasbiy yo'nalish, ijobiy mashg'ulot va kelajakka ishonchi bo'lmagan yigit-qizlarda ichki bo'shliq kuchayadi. Sport, ijod, ilm, mehnat va jamoaviy faollik bilan band bo'lmaganlarning xavfli muhitga kirib qolish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

Oltinchi omil – ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar. Ayrim hududlarda ish-sizlik, daromad manbalari cheklangani, ijtimoiy tengsizlik va tez pul topish istagi yoshlarni xavfli yo'llarga boshlashi mumkin. Narkojinoiy tarmoqlar aynan shunday vaziyatlardan foydalanib, yoshlarga yengil ish va tez daromad va'da qiladi.

Yettinchi omil – psixologik barqarorlik va emotsional savodxonlikning yetarli shakllanmagani. Stress, rad etilish, muvaffaqiyatsizlik yoki ichki ziddiyatni sog'lom tarzda yenga olmaganlar salbiy ta'sirlarga tezroq beriladi. Shu jihatdan, narkotikka qarshi profilaktika bir vaqtning o'zida emotsional tarbiya va ruhiy barqarorlikni kuchaytirish vazifasini ham o'z ichiga olishi kerak.

Forum tashabbuslari: zamonaviy tahdidga zamonaviy javob

Samarqand forumining ahamiyati shundaki, u muammoning faqat xavfli jihatlarini qayd etish bilan cheklanmadi. Unda profilaktika, ta'lim, xalqaro hamkorlik, tibbiy rehabilitatsiya, xavfsizlik va huquq-tartibot, ilmiy-innovatsion nazorat kabi yo'nalishlar bir butun tizim sifatida muhokama qilindi. Forum sho'ba majlislarida aynan ta'lim va profilaktika, xalqaro hamkorlik, giyohvandlarni davolashning samarali

narkotahdid va yoshlar xavfsizligi: va amaliy yechimlar

usullari, xavfsizlik va nazoratning ilmiy yondashuvlari masalalari ko'tarilgani bejiz emas.

Forumda ilgari surilgan tashabbuslar ana shu tizimli yondashuvning amaliy ifodasi bo'ldi. Xususan, transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor axborot almashinuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlanib, huquq-tartibot idoralari ma'lumotlar bazasini birlashtiradigan, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan yagona raqamli platformani ishga tushirish taklif qilindi. Bu platforma narko-trafik yo'nalishlarini barvaqt aniqlash, xavfli yuklarni erta bosqichda fosh etish, transmilliy jinoiy tarmoqlarni real vaqt rejimida kuzatishga xizmat qilishi lozim. Bu taklif bugungi davr talabiga javob beradi: narkobiznes raqamlashgan ekan, unga qarshi kurash ham raqamli aqlga tayanishi kerak.

Prezidentning yana bir muhim tashabbusi – narkobiznesning moliyaviy ildiziga zarba berish g'oyasi. Davlat rahbari bu haqda juda teran fikr bildirdi: *"Narkobiznesni qurol bilan emas, pulsiz qoldirish orqali yengish mumkin"*. Bu so'zlarda katta ma'no bor. Chunki Narkotik aylanmasi ortida milliardlab dollarlik yashirin iqtisodiyot, kriptoaktivlar, offshor hududlar, moliyaviy maxfiylik va uyushgan jinoyatchilik turibdi. Demak, bu kurash faqat kuch ishlatish bilan emas, moliyaviy monitoring, raqamli identifikatsiya va xalqaro kelishuvlar orqali ham olib borilishi shart.

Forumda sintetik narkotiklarning yangi turlari ko'payib borayotgani alohida qayd etildi. Shu munosabat bilan zamonaviy davolash standartlarini ishlab chiqish, bemorlarni samarali reabilitatsiya qilish, mamlakatlar o'rtasida tibbiy tajriba almashish, hatto Markaziy Osiyo Narkologlar assotsiatsiyasini tashkil etish kabi takliflar ilgari surildi. Bu masalaga faqat jazo emas, inson taqdiri nuqtayi nazaridan yondashish kerak. Chunki har bir qaramlik ortida hali qutqarib qolish mumkin bo'lgan inson turadi.

Faqat jazolash yetmaydi

Forum materiallarida narkotikka qarshi kurashish ba'zan huquqiy choralaridan ham oldin ijtimoiy siyosatdan boshlanadi degan muhim xulosa yaqqol ko'rindi. Ayrim hududlarda narkotik yetishtirish va tarqatish iqtisodiy imkoniyatlar cheklangani, ishsizlik va ijtimoiy tengsizlik oqibatida saqlanib qolayotgani ta'kidlandi. Shuning uchun yuqori xavfli hududlar uchun maxsus rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, ish o'rinlari yaratish, ta'lim va tibbiyotni rivojlantirish, aholini jinoiy iqtisodiyotga qaramlikdan chiqarish masalasi ham kun tartibiga qo'yildi. Bu juda muhim fikr: ba'zan narkotikka qarshi eng kuchli kurash – insonga halol hayot imkoniyatini berishdir.

Mamlakatimizda bu yo'nalishda amaliy ishlar ham olib borilmoqda.

So'nggi yillarda sohada 20 dan ortiq qonun hujjatlari, jumladan, 2024-yili giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilingan. Natijada narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobarga oshgan, musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobarga ko'paygan. Birgina o'tgan yilning o'zida 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etilgan, qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilingan, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet-do'kon faoliyatiga chek qo'yilgan. Joriy yilning birinchi choragida esa 35 ta uyushgan narkojinoiy guruh faoliyatiga chek qo'yilib, ularning 8 nafar lideri va 130 nafar a'zosi qo'lga olingan.

Amaliy yechimlar qayerdan boshlanadi?

Eng muhim savol: muammoning oldini qanday olamiz?

Avvalo, profilaktika mazmunan yangilanishi kerak. Maktab, texnikum, kollej va oliygohlarda narkotiklar haqida umumiy chaqiriqlar emas, balki yoshlarga tushunarli, hayotiy misollarga tayanagan, raqamli muhitdagi xavflarni ochib beradigan targ'ibot tizimi shakllantirilishi lozim. Yoshlar "shifrlangan kanal", "kuryerlik", "oson pul", "topshiriq" kabi atamalar ortida qanday jinoiy xavf turganini bilishi shart. Bir martalik qiziqish umrbod fojiga aylanishi mumkinligini aniq anglashi kerak.

Ikkinchidan, oila – mahalla – ta'lim muassasasi hamkorligi qog'ozda emas, amalda ishlashi muhim. Har bir hududda xavf guruhiga moyil yoshlarni barvaqt aniqlash, ular bilan manzilli ishlash, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmi bo'lishi lozim. Bu yerda mahalla faoli, pedagog, psixolog, profilaktika inspektori va ota-onaning hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, raqamli makonga qarshi immunitet yaratish shart. Bugun narkotik tuzog'i ko'chada emas, telefon ichida ham yashirilib turibdi. Shuning uchun yoshlarga shubhali kanallar, anonim takliflar ortida qanday jinoiy xavf borligi o'rgatilishi lozim. Bu borada forumda ilgari surilgan raqamli platforma, server va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlarni ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish samarali bo'ladi.

To'rtinchidan, yoshlarga faqat "yo'q" deb o'rgatish kifoya emas, ularga "ha" deyidigan sog'lom muhit yaratish ham zarur. Sport, volontyorlik, ijodiy to'garaklar, kasbga yo'naltirish, tengdoshlar yetakchiligi, startap muhiti – bular narkotikka qarshi profilaktikaning eng kuchli ijtimoiy shakllari hisoblanadi. Shu jihatdan "Anti-Narko" volontyorlik harakatining qisqa vaqtda



17 mingdan ortiq yoshni birlashtirgani va "AI Hackathon" milliy loyihasining boshlangani juda ahamiyatli. O'tgan yili mamlakatimizning BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining "CHAMPS" tashabbusiga qo'shilgani ham voyaga yetmaganlar orasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish va profilaktikani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Beshinchidan, qaramlikka moyil yoki unga tushib bo'lgan inson bilan ishlashda ayblash emas, qutqarish tamoyili ustuvor bo'lishi kerak. Psixologik maslahat, tibbiy yo'naltirish, reabilitatsiya, oila bilan ishlash, qayta ijtimoiylashtirish choralari bir-biriga bog'langan holda amalga oshirilishi lozim. Forumda davolash, profilaktika va reabilitatsiya yo'nalishlarining birgalikda muhokama qilingani ham shuni ko'rsatadi.

Oltinchidan, xalqaro hamkorlik faqat diplomatik muloqot emas, uni amaliy maydonga olib chiqish kerak. Forum doirasida 2003-yildan buyon Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan Markaziy Osiyoda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha CADAP-8 xalqaro mintaqaviy dasturini imzolash marosimi o'tkazildi. Bu kabi dasturlar umumiy xavfga qarshi umumiy tajriba, umumiy resurs va umumiy mas'uliyatni mustahkamlaydi.

Yettinchidan, oilalarda tanqiddan ko'ra, tinglash madaniyatini kuchaytirish zarur. Ota-ona va yaqinlar yoshlarga faqat nazorat qiluvchi emas, suyanadigan inson bo'lishi kerak. Oilada "nega bunday qilding?" degan savoldan oldin "senga nima bo'ldi?" degan savol paydo bo'lsa, ular o'z dardini yashirmaydi, xavfli yo'llarga og'ib ketmaydi.

Sakkizinchidan, ta'lim muassalaridagi psixologik yordam tizimi rasmiyatchilikdan chiqarilishi lozim. Maktab, texnikum, kollej va OTMlarda psixologik xizmat haqiqiy ishonch nuqtasiga aylanishi, yoshlar psixolog huzuriga borishni uyat yoki "muammoli odam ishi" deb emas, tabiiy yordam deb qabul qilishi kerak. Maxfiy maslahat, ishonch uchrashuvlari, kichik guruh suhbatlari va tengdoshlar yordami dasturlari shu maqsadga xizmat qiladi.

To'qqizinchidan, mahalla darajasida ogohlantirishdan ko'ra, hamdardlik muhitini yaratish muhim. Qaysidir yigit yoki qizda salbiy tomonga og'ish alo-

matlari sezilganda uni sharmanda qilish, tamg'alash yoki chetlatish emas, balki murojaat qiladigan, ishonadigan va yo'l ko'rsatadigan kattalar tizimini shakllantirish zarur.

O'ninchidan, yoshlarni emotsional savodxonlikka o'rgatish kerak. Stressni yengish, rad etilishni qabul qilish, his-tuyg'uni sog'lom ifodalash, nizoni hal etish va yordam so'rash madaniyati bo'yicha amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yilmasa, ruhiy bo'shliqni boshqa xavfli vositalar to'ldirishi mumkin.

O'n birinchidan, profilaktika ishlari-da "kuchli bo'l" degan quruq talabdan ko'ra "yolg'iz emassan" degan insonparvar yondashuv kuchaytirilishi lozim. Ba'zan yoshni narkotik emas, yolg'izlik sindiradi; modda emas, mehrsizlik zaiflashtiradi. Shuning uchun jamiyat uni faqat nazorat qilmasligi, eshitishi, tushunishi va qo'llab-quvvatlashi ham kerak.

Yakuniy chaqiriq

Xulosa qilib aytganda, Samarqand forumi narkotiklarga qarshi kurashning yangi bosqichini belgilab berdi. U shunchaki xalqaro anjuman emas, balki bugungi tahdidlarga qarshi qanday fikrlash va qanday harakat qilish kerakligini ko'rsatgan muhim maydon bo'ldi. Eng asosiysi, u bizga bir haqiqatni yana bir bor eslatdi: narkotikka qarshi kurash – bu faqat huquq-tartibot idoralarining ishi emas, oila, ta'lim, mahalla, tibbiyot, texnologiya va butun jamiyatning umumiy mas'uliyatidir.

Demak, masala faqat narkotikni to'xtatishda emas. Masala – insonni saqlab qolish, yoshlarni asrash, kelajakni himoya qilishdadir. Biz bu kurashni faqat jazo bilan emas, tarbiya, profilaktika, texnologiya, hamkorlik va inson taqdiri uchun kurash sifatida tashkil etsakkina, yoshlarimizni tahdid changalidan asray olamiz. Samarqand forumining ahamiyati ham aynan shunda: u xavfni ochib berdi, lekin shu bilan cheklanmadi – unga qarshi kurashishning yo'lini ham ko'rsatdi.

Shahnoza AKRAMOVA,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti
"Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-
ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan
ijtimoiy ishlash" kafedrasida boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori,
professor, podpolkovnik



Mutaxassis minbari

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur.

Abdulla Avloniy

Dunyoda shaxsning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga oid bir qator konsepsiyalar va yondashuvlar mavjud. Shaxsning fikrlash faoliyati – bilish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoni yechish, xulosa chiqarish va o'z fikrini nazorat qilish kabi kognitiv jarayonlar majmuyi hisoblanadi. Psixologiyada bu jarayonlar idrok, xotira, tafakkur va metakognitsiya bilan bog'lanadi; pedagogikada esa ular ta'lim mazmuni, metodlari va o'quvchi hamda talabalarning kognitiv faolligi orqali rivojlantiriladi.

Tafakkur ijtimoiy hayot bilan bog'liq hodisa bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan amaliy va aqliy faoliyatning ichki mexanizmi hisoblanadi. Inson muayyan vazifalarni bajarish jarayonida, kundalik muammolarga yechim topish, o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonida fikrlaydi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni faol harakatlantirish, amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish, loyihalar ustida ishlash, mustaqil faoliyat ko'rsatish, bilim olish va muammoli vaziyatlarga konstruktiv yechim topishga undash asosida ularning fikrlash faoliyatini jadallashtirish mumkin. Psixologik jihatdan bu yondashuv ong va faoliyat birligi prinsipiga tayanadi.

Shaxsning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda refleksiv va tanqidiy fikrlash yondashuvlari ham alohida ahamiyatga ega. Refleksiv fikrlash insonning o'z fikrlash jarayonini anglashi, tahlil qilishi va baholash qobiliyatiga egaligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash esa ma'lumotlarni shunchaki qabul qilmasdan, ularni dalillar yordamida tekshirishni anglatadi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarni o'qituvchiga savol bilan murojaat qilishga, suhbatdoshi fikriga shubha bilan qarashga, o'z fikrini dalillar yordamida asoslashga o'rgatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa munozara, debat, muammoli savollar, esse va tahliliy topshiriqlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi samarali vositalar hisoblanadi. Fikrlashning psixologik asosi sifatida o'z o'zini ongli nazorat qilish, analitik yondashuv va xulosalarning asoslanganligini tekshirish mexanizmlari xizmat qiladi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyati ijtimoiy tajriba, amaliy ko'nikmalar va fanga oid bilimlar hamda o'z ko'nikmalarini faol tarzda sinab ko'rish orqali takomillashadi. Nutq va tafakkur birligi haqidagi yondashuv ham fikrlash faoliyatining muhim psixologik asosini tashkil qiladi. Ushbu qarashga ko'ra, nutq fikrni ifodalash vositasi bo'lish bilan bir qatorda uni shakllantiradi ham. Insonning nutqi qanchalik boy, aniq va ifodali bo'lsa, uning fikrlash faoliyati ham shunchalik teran, tizimli, izchil, mantiqiy asosga ega bo'ladi. Ichki nutq, tushunchalar tizimi, kategoriyalash, izohlash va dalillash kabi jarayonlar tafakkur rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ilmiy tushunchalarni tizimli tarzda taqdim etish, matn ustida ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirish ularning fikrlash faoliyatini jadallashtiradi, tanqidiy, kreativ va mantiqiy, tahliliy fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shaxsning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan konsepsiyalar, modellar turli-tuman bo'lishiga qaramasdan, yagona maqsadga qaratilganligi bilan o'ziga xos pedagogik ahamiyatga ega. Chunki birinchidan, insonning fikrlashi passiv jarayon emas, faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan va muntazam rivojlanuvchi kognitiv jarayon hisoblanadi. Ikkinchidan, fikrlash biologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit, til, nutq, madaniyat hamda ta'lim-tarbiyaning kompleks ta'siri natijasida shakllanadi. Uchinchidan, shaxsning fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar, didaktik ta'minot, shu jumladan, muammoli vaziyatlar, faol muloqot, ishchan dialog, kolloboratsiyada ishlash, refleksiv faoliyat, amaliy faoliyat va evristik izlanishga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish talab

qilinadi. Ko'rinib turibdiki, shaxsning fikrlash faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri bo'lib, mazkur jarayon psixologik qonuniyatlar hamda pedagogik texnologiyalar integratsiyasini taqozo etadi. Shuning uchun ham maktab ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish umum-milliy dasturida o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mutafakkir ajdodlarimizning fikr tarbiyasiga oid konseptual qarashlari Sharq xalqlari ma'naviy axloqiy tarbiyasiga oid muhim konseptual yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu qarashlarda fikr tarbiyasi shaxsning aqliy kamoloti, axloqiy yetukligi, rostgo'yligi, ilmga intilishi va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Umuman, o'rta asr Sharq falsafasi, axloqi, pedagogikasi va xalq tafakkuri mahsuli bo'lgan etnografik qadriyatlarida ilm izlash, aqlni tarbiyalash va hikmatga erishish aqliy kamolotning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Abu Nasr Forobiy fikr tarbiyasini komil inson va fozil jamiyatni shakllantirishning poydevori sifatida baholagan. Uning konseptual qarashlarida aql, fazilat, mantiqiy tafakkur va to'g'ri hukm chiqarish o'zaro aloqadorlikda talqin etilgan. Forobiy ilm va falsafiy tarbiyani insonni saodatga eltuvchi vosita sifatida ko'ra olgan. Shunga ko'ra fikrni tarbiyalash bilim berishdangina iborat emas, balki nazariy-amaliy fazilat va to'g'ri mushohada yuritish qobiliyatini shakllantirishdan iborat deb hisoblagan. Pedagogik nuqtayi nazardan yondashganda ushbu g'oya o'quvchini o'z fikrini dalillarga asoslangan holda bayon etishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'ra olish, mantiqiy xulosalar chiqara olish va ezuq maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan tafakkurni rivojlantirishga undaydi.

Abu Ali Ibn Sinoning konseptual qarashlarida fikr tarbiyasi inson ruhiyati, aqliy quvvatlari va bilim olish jarayoni bilan chambarchas bog'langan. U aqlni shaxs kamolotining yetakchi omili sifatida baholagan. O'z faoliyatida mantiq, ruh, idrok va intellekt masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shu ma'noda, u ilgari surgan fikr tarbiyasi konsepsiyasi mushohada, tahlil, tushunchalash va nazariy bilimni amaliy hikmatga aylantirish jarayonidir. Pedagogik ahamiyati shundaki, bu qarashlar o'qitishda yoshning individual qobiliyati, aqliy mashq, izchil o'qitish va ongli o'zlashtirish zarurligini asoslab bergan.

Abu Rayhon Beruniy merosida ham fikr tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Uning ijodida kuzatish, tajriba, taqqoslash kabi kognitiv jarayonlar xolis ilmiy yondashuv bilan bog'lanadi. Beruniy bir qancha tilni bilgani unga tafakkur tarbiyasida ratsional, izlanishga asoslangan yondashuvni asoslash imkonini berdi. Manbalarning guvohlik berishicha, Abu Rayhon Beruniy ilmiy mantiq bilan sehr yoki xurofot mantig'i orasidagi farqni teran ilg'agan alloma sifatida tavsiflangan. Beruniy tomonidan ilgari surilgan fikr tarbiyasi konsepsiyasi o'quvchilarni dalillarga asoslangan holda mulohaza yuritishga, turli madaniyatlar va tillarni qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy haqiqatni izlashga o'rgatish g'oyasi ilgari surilgan konseptual yondashuv sifatida baholangan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida fikr tarbiyasi davlatni boshqarish, adolat, aql va odob bilan uzviy bog'langan holda talqin etilgan. Ushbu asar Sharq didaktik tafakkurining yirik namunasi sifatida insonning aqliy yetukligi va axloqiy mas'uliyatini yaxlit tarzda ko'rsata olgan didaktik xarakterdagi asardir. Unda sog'lom fikr, vazminlik, to'g'riso'zlik va oqilona qaror qabul qilish jamiyat barqarorligi va shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida tavsiflangan. Pedagogik nuqtayi nazardan yondashganda, bu qarashlar fikr tarbiyasini faqat individual intellekt emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, boshqaruv madaniyati va hayotiy donishmandlikni shakllantirish vositasi sifatida talqin etishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy merosida fikr tarbiyasi shaxs ma'naviyati, ilm egallashi, axloqiy yetuklikka intilish

va komil inson qiyofasini yaratishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Alisher Navoiyning ta'biriga ko'ra, insonning buyukligi uning moddiy boyligi bilan emas, balki aql-idroki, odob-axloqi, ilm egallashga intilishi va ezuq niyati hamda sog'lom fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Navoiy ilm-ma'rifatni inson qalbi va tafakkurini poklaydigan kuch sifatida baholaydi. Shunga ko'ra, Alisher Navoiy fikr tarbiyasini tilga ehtiyotkorona munosabat, nutq madaniyati, odob-axloq va qalb tarbiyasi hamda insonparvarlik bilan uyg'un tarzda amalga oshirish zarurligi haqida o'git beradi. Masalan, "Tilingni ixtiyoringda asrag'il, so'zungni ehtiyot bila degil". Fikr tarbiyasi alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki inson fikrlash orqali mantiqiy, estetik va axloqiy jihatdan rivojlanadi. Uning zakovati, aql-idroki charxlanadi. Chuqur o'ylangan ongli harakatlarni amalga oshiradi. Mas'uliyatli qarorlar qabul qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning fikr tarbiyasiga oid qarashlari e'tiborga loyiq. Birinchi navbatda, aniq fikrlash, fikrni to'g'ri bayon qilish, hayotiy tajribalarga tayangan holda asosli xulosa chiqarish va aqliy intizomga e'tibor qaratgan. "Boburnoma" asari va Humoyunga yozgan maktublari orqali fikr tarbiyasiga doir muhim konseptual g'oyalarni ilgari surgan. Chunki "Boburnoma" asari keyingi avlodlarga fikr tarbiyasi haqida ham saboq beruvchi didaktik asar hisoblanadi.

U Humoyunga yozgan mashhur maktubida o'g'lining yozuv uslubini tanqid qilib, fikrni ortiqcha murakkablashtirmaslik, mavhum va tushunarsiz bayondan qochish, sodda va ravshan yozish kerakligini uqtirgan. Boburning ta'biriga ko'ra, fikr tarbiyasi ichki tafakkur bilangina cheklanmasdan, uni to'g'ri, aniq va tushunarli ifoda eta olish madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Boburga ko'ra yaxshi fikr – tartibli, ravshan va boshqalarga tushunarli fikrdir.

Boburning nuqtayi nazariga ko'ra, yetuk tafakkur

Ertakchi bobo va

Mulohaza



Bizning ertangi kunimiz ko'p jihatdan bugun ta'lim-tarbiya berayotgan yoshlarimizning qanday kamol topishiga bog'liq. Ularning kelajagi porloq bo'lishi uchun davlatimiz tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Zamonaviy ta'lim muassasalari, elektron darsliklar, kompyuter texnologiyalari, stipendiya va grantlarning joriy etilishi, albatta, quvonarli hol. Bugungi yoshlar uchun bunday imkoniyatlar nihoyatda zarur. Ba'zan ko'pchilikning ko'nglidan "Qaniydi yoshligimga qaytsam, ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishardim, Vatanim va xalqim oldidagi burchimni yangicha g'oyalar, kashfiyotlar bilan sidqidildan ado etardim", degan o'ylar o'tadi. Darhaqiqat, bunday imtiyoz va erkinliklar kimni ham quvontirmaydi?

Zamon rivojlanmoqda, yoshlarning dunyoqarashi kengaymoqda, deya o'zimizni ovutamiz. Ammo aslida farzandlar ta'lim-tarbiyasini ko'pincha maktab va maktabgacha ta'lim muassasalariga yuklab qo'yayotganimiz ham haqiqat. Ba'zan esa ularning ma'naviy kamolotidan ko'ra moddiy ta'minoti muhimroq bo'lib borayotgandek. Aslida esa oila tarbiyasi birlamchi zaruriy jarayon. Oilada yaxshi tarbiya topgan bola maktabda ham yaxshi bilim oladi, kelajagi ham porloq bo'ladi.

Bolaligimda bobom bilan buvim nabiralarini yoniga yig'ib, rivoyat, hikoya va ertaklar aytib berishardi.

rivojlanish dinamikasi

faol hayotiy pozitsiya, mehnatsevarlik va mas’uliyat tuyg’usi bilan uyg’un tarzda namoyon bo’lishi kerak. U fikr tarbiyasini shunchaki mulohaza yuritishdan iborat emas, balki qaror qabul qilish, o’z-o’zini boshqarish, voqelikni aniq idrok etib unga obyektiv munosabat bildirishga xizmat qiladigan faol aqliy quvvat sifatida yondashgan.

Bobur talqinidagi tafakkurning yana bir xususiyati – kuzatuvchanlik va tajribaga tayangan mushohadadir. Uning o’zi ham shunday mushohada sohibi bo’lgan. Tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarni kuzatib, aniq mushohada yuritganligi “Boburnoma”dagi fikr bayonida o’z ifodasini topgan. Boburning fikrlash tarzida taqqoslash, kuzatish va xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlar alohida o’rin egallaganligini ko’rish mumkin.

Bobur qarashlarida o’z-o’zini tahlil qilish va xatodan saboq chiqarish ham muhim o’rin egallagan. Shuning uchun ham “Boburnoma” matni aniq va obyektiv fikr bayonini o’zida mujassamlashtirgan, tajribalarni keyingi avlod uchun ibratga aylantirgan matn sifatida baholanadi. Ko’rinib turibdiki, Bobur fikr tarbiyasining refleksiv jihatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan.

Bobur tomonidan ilgari surilgan fikr tarbiyasi bevosita axloqiy mas’uliyat bilan bog’liq. U tafakkurni bilim va zukkolik mezonini sifatida tavsiflash bilan bir qatorda, insonning odobi, mas’uliyati, boshqaruv madaniyati va jamiyat oldidagi burchini belgilovchi imkoniyat sifatida ham baholaydi. Shu ma’noda, Boburning fikr tarbiyasiga oid g’oyalarda uni ijtimoiy mas’uliyat va shaxsiy kamolot manbayi sifatida tavsiflagan.

Shunga ko’ra, uning fikr tarbiyasiga oid qarashlari quyidagilarda mujassamlashgan: aniq fikrlash va o’z fikrini to’g’ri, tushunarli bayon qilish, aqliy intizom va

mehnatsevarlik sifatlariga ega bo’lish, kuzatuvchanlik va tajribaga tayangan holda mushohada yuritish, o’z-o’zini tahlil qilish va yo’l qo’ygan xatolaridan saboq chiqarish, fikrni mas’uliyatlik bilan uyg’un tarzda talqin etish.

Yuqoridagi tahlil qilingan yondashuvlar va tarixiy tajribalar fikr tarbiyasi barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan ijtimoiy va ta’limiy vazifa ekanligini yaqqol ko’rsatmoqda. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan malakatlarida 4K, 5E modellari amal qilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ushbu modellarning asosini fikr tarbiyasi tashkil etadi. Jumladan, 4K modeli zamonaviy ta’limda eng ko’p qo’llanayotgan universal ko’nikmalar majmuyi bo’lib, ular tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kolloborativ ko’nikmalarni o’z ichiga oladi. XXI asr ko’nikmalarini o’zida mujassamlashtirgan ushbu model murakkab hayot hamda mehnat muhitida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo’lgan omillar hisoblangan tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kolloboratsiyada ishlashni nazarda tutadi. Tanqidiy fikrlash va muammolarga yechim topish, kreativlik va innovatsiya, samarali muloqot hamda hamkorlik XXI asrda jamiyat a’zolarining ijtimoiy faol shaxs sifatida faoliyat ko’rsatishi uchun zarur ko’nikmalar sifatida tan olingan.

4K kompetensiyalari mazmunan o’zaro bog’langan komponentlardan tashkil topgan. Tanqidiy fikrlash dalillarni tahlil qilish, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish, sabab-oqibat bog’lanishlari orasidagi munosabatni anglash hamda asosli xulosalar chiqarishda o’z ifodasini topadi. Kreativlik esa yangi g’oyalar, noodatiy yechimlar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yo’naltirilgan faoliyatdir. Kommunikatsiya esa fikrni verbal, yozma va raqamli shakllarda aniq, maqsadli va tushunarli ifodalashdan iborat. Kolloboratsiya atrofida bilan hamkorlik qilish, mas’uliyatni teng taqsimlash, o’zaro kelishuvga erishish va jamoaviy natijaga erishish ko’nikmasidir.

Inson fikrlash faoliyatida 4K kompetensiyalarining tutgan o’rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash analitik va refleksiv tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Kreativlik esa tafakkurning divergent, ya’ni ko’p variantli va yangilikka yo’naltirilgan yo’nalishini rivojlantiradi. Kommunikatsiya fikrni shakllantirish, aniqlashtirish va shaxsni ijtimoiylashtirishga xizmat qiladi. Kolloboratsiya esa tafakkurni individual doiradan ijtimoiy tafakkur darajasiga olib chiqadi. Bir so’z bilan aytganda, 4K modeli ta’lim oluvchilarning kognitiv faoliyati bilan bir qatorda ijtimoiy fikrlashi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va muammoni amaliy hal etish ko’nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu ko’nikmalar murakkab, tez o’zgaruvchan va shaxsning muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo’lgan ko’nikmalar hisoblanadi.

Biroq 4K kompetensiyalari, asosan, natijaga asoslangan kompetensiyalarni ifodalaydi. Ya’ni ular “o’quvchida nimani rivojlantirish kerak?” degan savolga javob beradi, lekin “uni qanday rivojlantirish kerak?” degan savolga to’liq metodik mexanizm bermaydi. Xuddi shu o’rinda, 5E modeliga o’tish zarurati vujudga keladi. Ilmiy manbalarda ko’rsatilishicha, 5E modeli ko’proq kompetensiyalar ro’yxati emas, balki konstruktivistik o’qitish modeli sifatida tavsiflanadi. 5E modeli besh ta bosqichni o’zida mujassamlashtiradi. Ular motivatsion-faollashtiruvchi kompetentlik(Engage), tadqiqotchilik kompetentligi(Explore), tushuntirish va konseptuallashtirish kompetentligi(Explain), transfer va qo’llash kompetentligi(Elaborate), refleksiv-baholash kompetentligi(Evaluate) kabilardan iborat.

Shu ma’noda 4K kompetensiyalaridan 5E modeliga o’tish zarurati bir necha sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, 4K ko’nikmalari darsda tabiiy ravishda emas, balki puxta loyihalangan o’quv jarayonida rivojlanadi. Ikkinchidan, 5E modeli o’quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni faol ravishda kashf etuvchi subyektg a aylantiradi, bu o’z navbatida,

4Kning ayniqsa tanqidiy fikrlash, kreativlik va kolloboratsiya qismlarini kuchaytiradi. Uchinchidan, 5E o’quv faoliyatini bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu bosqichlar qiziqitirish, tadqiq qilish, tushuntirish, chuqurlashtirish va baholashdan iborat. Bu esa 4Kni amaliy o’quv natijasiga aylantirishga xizmat qiladi.

5E modeli fikr tarbiyasi nuqtayi nazaridan alohida pedagogik ahamiyatga ega. Uning pedagogik jihatdan muhim qirrasini o’quvchilarni faol o’qib o’rganish jarayoniga olib kirishidadir. Motivatsion-faollashtiruvchi kompetentlik bosqichi o’quvchining qiziqishi, oldingi bilimlari va ichki motivatsiyasini rivojlantirishga ko’maklashadi. Tadqiqotchilik kompetentligi bosqichi esa o’quvchini mustaqil kuzatish, tajriba, izlanish va hamkorlikka olib kiradi. Tushuntirish va konseptuallashtirish kompetentligi bosqichida o’quvchi tushunchalarni nutq yordamida tartibga soladi, o’z fikrini ifodalaydi va ilmiy tushuncha bilan bog’laydi. Transfer va qo’llash kompetentligi bosqichida o’quvchilar o’z bilimlarini yangi vaziyatga ko’chiradi, ya’ni transformatsiya jarayoni vujudga keladi. Refleksiv-baholash kompetentligi bosqichida esa o’quvchi ham, o’qituvchi ham, o’zlarining rivojlanish darajalarini aniqlaydilar, refleksiya qiladi va keyingi rivojlanish trayektoriyalarini belgilaydi. Bu sikl ta’limning maqsad, mazmun, metod va baholash qismlarini yagona tizimga birlashtiradi.

5E modeli o’zining psixologik imkoniyatlariga ega. Mazkur model psixologik jihatdan o’quvchilarning kognitiv jarayonlariga mos keladi. Motivatsion-faollashtiruvchi kompetentligi o’quvchilarning diqqati va motivatsiyani faollashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilik kompetentligi esa qiziqish, kognitiv konflikt va mustaqil qidiruvni kuchaytiradi. Tushuntirish va konseptuallashtirish kompetentligi tafakkurning verbal shaklda tushunchalar tarzida namoyon bo’lishini kuchaytiradi. Transfer va qo’llash kompetentligi o’quvchilarda umumlashtirish, transfer va yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantiradi. Refleksiv-baholash kompetentligi esa metakognitiv faoliyat, o’z-o’zini nazorat qilish, va o’z-o’zini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Ko’rinib turibdiki, 5E modeli 4K kompetensiyalarining psixologik shakllanish mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi.

Didaktik jihatdan 5E modelining afzalligi shundaki, u darsni oddiy “tushuntirish – mustahkamlash – nazorat” sxemasidan chiqarib, konstruktivistik o’quv sikliga aylantiradi. Bu modelda o’quvchilar avval tajriba orttiradi, keyin tushuntiradi, so’ng kengaytiradi va baholaydi. Shunga ko’ra, 5E modeli faqat STEM uchun emas, til, ijtimoiy fanlar va kompetensiyaga yo’naltirilgan barcha fanlar uchun mos didaktik vosita bo’la oladi. 4K modeli – “nima rivojlanadi?”, 5E modeli esa – “qanday rivojlanadi?” degan savollarga javob beradi.

Xulosa qilib aytganda, 4K kompetensiyalari zamonaviy shaxs tafakkurining tayanch ko’nikmalarini ifodalaydi: ular fikrning tanqidiyligi, ijodiyligi, ijtimoiyligi va ifodalilik darajasini belgilaydi. Ammo bu ko’nikmalarni real ta’lim jarayonida shakllantirish uchun 5E modeliga kuchli zaruriyat seziladi. Chunki mazkur model 4Kni didaktik amaliyotga aylantiradi. Pedagogik jihatdan esa 5E faol, mazmunga asoslangan, muayyan mohiyatga ega bo’lgan o’qitishni ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. Psixologik jihatdan olib qaraganda esa o’quvchilarning motivatsiyasi, kognitiv faoliyati, transfer va refleksiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik jihatdan esa har bir darsni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bosqichli izchil tizim sifatida tashkil etishga yordam beradi. Shunga ko’ra, zamonaviy ta’lim tizimlarida 4K va 5E modellari bir-birini inkor qilmaydi, balki bir-birini boyitadi. Chunki ularning har ikkalasi ham fikr tarbiyasini amalga oshirishga yo’naltirilgan zamonaviy ta’lim modellari hisoblanadi.

Rohatoy SAFAROVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti
“Milliy tarbiya, mutafakkirlar va
jadidlarning pedagogik ta’limotlari”
ilmiy-tadqiqot bo’limi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

buvilar qayerda?

Shu orqali bizga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqida dastlabki tushunchalarni singdirishardi. Xo’sh, bugungi kunning bobojonlari va buvi-jonlari-chi? Ular nabiralarga ertak va hikoyalar aytib berishayaptimi? Bu savol, afsuski, og’riqli.

Faoliyatim bevosita ta’lim-tarbiya bilan bog’liq bo’lgani sababli o’quvchilarga: “Bobongiz yoki buvingiz sizga oxirgi marta qachon ertak yoki hikoya aytib berdi?” degan savolni berganimda aksariyat o’quvchilarning javobi sukut bo’lmoqda.

“Vatanga muhabbat ona allasi bilan singadi”, deymiz. Darhaqiqat, bolalarning yetuk va barkamol avlod bo’lib ulg’ayishida sensor telefonlar yoki planshetlardan ko’ra, bobo va buvilarining milliy ertaklari, hayotiy hikoyalari muhimroq o’rin tutadi.

Agar bolalar o’zlarini qiziqitirgan savollarga javobni faqat internetdan emas, balki bobo va buvilaridan olishsa, ular o’rtasidagi mehr, ishonch va muloqot mustahkamlanardi. O’rtadagi ko’rinmas parda yo’qolib, avlodlar o’rtasidagi uzviylik tiklanardi.

Globalashuv sharoitida yoshlarning internetga haddan ziyod berilib ketishining oldini olish uchun maktabgacha ta’lim muassasalari hamda umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Mening bobom va buvim kitobxon”, “Bobomning nasihatlari”, “Bizning oila kitobxon” kabi ko’rik-tanlovlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo’lard. Bu jarayonni ta’lim muassasalari darajasida monitoring va tahlil qilish esa yana-da samarali natija beradi.

Shu o’rinda menda haqli bir savol tug’iladi: ertak aytib beradigan bobo va buvilar qayerda?

G’ayratjon QORABEKOV,
Toshkent Kimyo
xalqaro universiteti
Samarqand filiali
1-kurs magistranti



Sinab ko'ring

MATN BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI OSHIRAMIZ!

(Ona tili, 5-sinf)



Ona tili darslarida matn bilan ishlash va lug'at boyligini oshirish jarayoni o'quvchilarning nutqiy hamda tafakkuriy rivojida muhim o'rin tutadi. Shu bois, dars jarayoniga interaktiv metodlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quyida ana shunday metodlardan ba'zilarini e'tiboringizga havola etamiz.

“Lokatsiya” metodi

Matn ustida ishlash o'quvchilardan nafaqat o'qish, balki tahlil qilish, mazmunni anglash va lug'aviy birliklarni ajratib olishni talab etadi. “Lokatsiya” metodi aynan shu jarayonni qiziqarli va faol shaklga keltiradi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga muayyan matnni taqdim etadi. Shu bilan birga, oldindan tayyorlangan lokatsiya belgilariga matnda uchraydigan ayrim so'zlarning sinonimlari, antonimlari yoki omonimlari yozib qo'yiladi.

O'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib chiqadi va lokatsiya belgilaridagi so'zlarga mos keladigan birliklarni matndan izlab topadi. Topilgan so'z ustiga mos lokatsiya belgisi joylashtiriladi. Bu jarayon o'quvchini har bir so'z ustida to'xtalish, uning ma'nosini chuqurroq anglashga majbur etadi. Natijada o'quvchi matnni yuzaki o'qishdan voz kechib, uni tahliliy yondashuv asosida o'zlashtiradi.



“Lokatsiya” metodining yana bir samarali shakli xarita yoki chizma asosida tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi dars mavzusiga mos ravishda xarita yoki joylashuv chizmasini tayyorlaydi. Xaritaning turli nuqtalariga javoblar yozilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilarga esa savollar yoki lug'aviy topshiriqlar beriladi. Ular berilgan lokatsiyalar orqali mos javobni topib, xaritadagi to'g'ri manzilni aniqlashi kerak bo'ladi. Bu jarayon tafakkurni faollashtiradi, diqqatni jamlaydi va bilimni ongli ravishda egallash imkonini yaratadi.

“Gerbariy” metodi

“Gerbariy” metodini qo'llash jarayonida o'qituvchi, avvalo, katta devoriy gazeta tayyorlaydi. Ushbu devoriy gazetaga kamida o'nta savol yoki mavzuga oid so'zlar yoziladi. Bu savollar o'quvchilarning bilim darajasiga mos va mavzuni to'liq qamrab oladigan bo'lishi lozim. So'ng alohida qog'ozlardan barg-

lar tayyorlanadi. Ushbu barglarga devoriy gazetadagi savollarning javoblari, ularning sinonimlari yoki ma'nodosh shakllari yoziladi. Tayyorlangan barglar aralashtirib yuboriladi.



Keyingi bosqichda har bir o'quvchi yoki guruhga devoriy gazetadagi bitta savol biriktiriladi. O'quvchilar aralashtirilgan barglar orasidan faqat o'z savoliga mos keladigan javoblarni izlab topadi. Bu jarayonda ular tahlil qiladi, solishtiradi va moslikni aniqlaydi. Topilgan barglar yig'ilib, o'quvchi tomonidan “gerbariy to'plami” hosil qilinadi. Yakunda o'quvchi o'z to'plamini izohlaydi, ya'ni nima sababdan aynan shu javoblarni tanlaganini asoslab beradi.

Yulduz RAHIMBOYEVA,
Xonqa tumanidagi
25-maktabning oliy toifali ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Tajriba

TABIY FAN DARSLARIDA EKOLOGIK LOYIHALAR YARATISH



Atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilimlarni egallash orqali o'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Ekologik ong – atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan mas'uliyatli munosabatdir. U har bir shaxsning tabiatga nisbatan javobgarligini oshiradi, ekologik muammolarni anglashga va ularni hal qilishda faol ishtirok etishga undaydi.

O'quvchilar global va mahalliy ekologik muammolar haqida bilimga ega bo'lib, ularning sabab va oqibatlarini tushunadilar. Shuningdek, barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini anglaydilar hamda barqarorlik tamoyillarini amalda qo'llash ko'nikmalarini egallaydilar.

Mazkur maqsadlarga erishishda o'qituvchilarga turli ekologik loyiha mavzularini taklif etish maqsadga muvofiq. Masalan: “Maktab hududida ekologik bog' yaratish”, “Chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish”, “Energiya tejovchi qurilmalardan foy-

dalanish”. Bunday loyihalar jarayonida o'quvchilar loyiha rejasini tuzadi, ma'lumot to'playdi, tajribalar o'tkazadi va natijalarini taqdim etadilar. Loyihalar davomida turli maketlar tayyorlab, amaliy tajribalar o'tkazadilar. Jumladan, havo sifatini tahlil qilish, suvni filtrlash, tuproq tarkibini o'rganish, o'simliklarning o'sishini kuzatish, qushlar va boshqa jonivorlar hayotini tadqiq etish kabi ishlar amalga oshiriladi. Ekologik ong va barqarorlik kompetensiyalarini shakllantirishda tabiiy fan darslarida amaliy mashg'ulotlar va tajribalar muhim o'rin tutadi.



Shuningdek, o'yin texnologiyalari orqali ekologiya, biosfera kabi mavzularni qiziqarli va tushunarli tarzda o'rgatish mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va bilimlarini mustahkamlaydi.

Kreativ metodlardan yana biri – “Ekologik shahar” metodidir. Ushbu metod orqali o'quvchilar shaharni barqaror rivojlantirish, resurslarni oqilo-

na boshqarish ko'nikmalarini egallaydilar. Ekologik muammolar va barqarorlik g'oyalari rasmlar hamda plakatlar orqali ifodalanadi. Bu esa o'quvchilarni ekologik loyihalarga faol jalb etib, ularda mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ekologik aksiyalar va ko'ngilli harakatlarda ishtirok etish ham muhim ahamiyatga ega. Maktablarda chiqin-

dilarni saralash tizimini joriy etish, mahalliy hududlarni tozalash tashabbuslarini ilgari surish, ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik qilishda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Zliha BOYMURODOVA,
Kegeyli tumanidagi
5-maktabning biologiya fani
o'qituvchisi



Islahot

O'zbekiston va PIRLS: bizni nima kutmoqda?

Mamlakatimiz ta'lim sifatini oshirish maqsadida nufuzli xalqaro tadqiqotlarda faol ishtirok etib kelmoqda. PIRLS – bu yo'nalishdagi eng muhim qadamlardan biridir.

Birinchi ishtirok va natijalar

O'zbekiston ilk bor 2021-yili PIRLS tadqiqotida ishtirok etdi. Unda respublikamiz bo'ylab tanlab olingan 180 ta maktabdan 5 948 nafar 4-sinf o'quvchisi qatnashdi. O'quvchilarimiz 437 ball to'plab, 57 ta davlat(va hududlar) orasida 49-o'rinni egalladi. Bu natija xalqaro o'rtacha ko'rsatkichdan(500 ball) pastroq bo'lsa-da, bu biz uchun ta'lim tizimidagi holatni xolis baholash va kamchiliklarni aniqlash uchun real ko'zgu vazifasini o'tadi.

Xalqaro baholash tizimi har 5 yilda o'tkazilgani sababli, navbatdagi katta imtihon 2026-yili bo'lib o'tadi.

2025-yil aprel-may: respublikamizning tanlab olingan 30 ta maktabida tajriba-sinov(pilot) jarayonlari o'tkazildi. Unda 14 ta hududdan jami 57 ta sinf, 1471 ta o'quvchi tayyorgarlik ko'rdi. Joriy yil asosiy tadqiqot jarayoni

bo'lib o'tadi. PIRLS – 2026 to'liq raqamli formatga o'tishi kutilmoqda. Shu sabab, o'quvchilarda nafaqat o'qish, balki kompyuter savodxonligi ham yetarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bizga nima beradi?

Bu shunchaki reyting emas. Tadqiqot orqali biz:

1. Farzandlarimiz matnini qanchalik tushunayotganini bilamiz.
2. Darsliklarimiz va o'qitish metodikamiz jahon standartlariga qanchalik mosligini tekshiramiz.
3. Kelajakda kuchli mutaxassis bo'ladigan, tahliliy fikrlaydigan avlodni tarbiyalash uchun rejalarini belgilaymiz.

PIRLS – 2026 natijalari 2027-yilning dekabr oyida e'lon qilinadi. Ungacha barchamiz – maktab, o'qituvchi va ota-onalar hamjihatlikda harakat qilishimiz lozim!

Sevara RAHMATULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati Pedagogik
mahorat markazi metodisti

Yangi nashr

Kitobxon xalqning vorislarimiz!

Yaqinda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, taniqli shoir va tarjimon Asror Mo'minning “Kitob – kamolot kafolati” publiksistik to'plami nashrdan chiqdi. Kitobga muallifning keyingi yillarda dolzarb mavzularda yozgan maqolalari kiritilgan bo'lib, ularda ustozlar mehri va kitoblar mutolaasi inson kamolotida muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor berilgan.

Publitsistika – davrning adabiy-badiiy ifodasi. Shu bois, muallif “Muvaffaqiyat yo'li” maqolasida o'z hayoti misolida ustozlarining mehri va kitoblar mutolaasi yutuqlarining asosi bo'lganini samimiy tarzda tasvirlagan. Albatta, inson kamolotida ijobiy muhit muhim o'rin tutadi. Muallif “Mustaqillik yutuqlarimiz asosidir” maqolasida yurtimiz istiqloli ijodiga qanot bag'ishlaganini aniq misollar keltirgan holda faxr bilan ta'kidlaydi.

Shavkatli ajdodlarimiz hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Hofiz Ko'hakiyga bag'ishlangan maqolalarda qimmatli tarixiy ma'lumotlar asosida mavzu teranroq yoritiladi. Ayniqsa, Hofiz Ko'hakiyning Toshkentdan Ibrohim ibn Adnonning X asrda fors tilida yozgan “Tarixi Turkiston” kitobini o'qish maqsadida qancha tog'larning xatarli so'qmoqlaridan oshib, yo'lda qaroqchilarga talanib Hindistonga borganini o'qiganingizda, nega uning buyuklik darajasiga erishganini tushunib yetasiz. Bobur mirzo ezgu maqsadda kelgan allomaga ehtirom ko'rsatadi va saroy kutubxonasida mutolaa qilishiga qulay sharoit yaratib beradi. Natijada o'sha noyob kitob Hofiz Ko'hakiy tomonidan turkiy tilga tarjima qilinadi.

“Tarixchilar va shoirlar nazdda Toshkent” maqolasida qadimiy shahrimiz haqida yozgan fozillar hamda ularning asarlari nomma-nom esga olinadi. Faylasuf shoirimiz Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma”(bu dostonidagi tarixiy ma'lumotlarni o'qigan ziyolilar uni yozish uchun shoir qancha kitoblarni o'qigan ekan degan

xayolga boradi) va uning shogirdi Xayriddin Salohning “Toshkent bilan suhbat” dostonlari to'g'risidagi fikrlar sizni teran mulohazaga chorlaydi. “Qo'lda qalam va qurol bilan” hamda “Onalar yuragini asrang” maqolalarida Ikkinchi jahon urushida jang qilgan adiblarimiz, bu davrda yaratilgan asarlar, urushda otilgan o'qlar avval frontdan uzoqda bo'lgan o'zbek onalarining yuragiga tegib, keyin farzandlarining umriga zomin bo'lgani alam bilan xotirlanadi. Ha, urush xalqimiz boshiga cheksiz musibatlar soldi, bu bizni yurtimizning hozirgi tinch-osoyishta kunlari qadriga yetishga va uni asrashga undaydi.

Muallif sport jurnalisti sifatida ham tanilgan. Uning kitobga kiritilgan futbol bo'yicha milliy terma jamoamizning jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgan muvaffaqiyatiga, shohmot bo'yicha jahon kubo-gi g'olibi Javohir Sindorov, dzyudo bo'yicha Olimpiya chempioni Diyora Keldiyorova va sportga oid boshqa maqolalari keng qamrovliligi hamda ma'lumotlarga boyligi bilan o'quvchilar e'tiborini qozonadi. Shuningdek, u tarjimon sifatida mashhur shoirlar – bolqor Qaysin Quliyev, avar Rasul Hamzatov, qalmoq David Qug'ultinov, rus Robert Rojdestvenskiyning durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga taqdim etib kelayapti. Kitobdagi ularga bag'ishlangan maqolalarda yozilgan ibratomuz voqealar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Jahon estradasi yulduzlari – hamyurtimiz Anna German va ukrainalik Sofiya Rotaruga bag'ishlangan maqolalar o'quvchilarni qo'shiqlarning sehlri



olamiga boshlaydi. U jurnalist sifatida hamkasblari Temur Ubaydullo, Safar Ostinov, Qurbon Eshmat xotiralarini hurmat bilan esga olgan maqolalarida ularning ibratli hayot va ijod yo'llari haqida hikoya qiladi.

Biz ming yillardan buyon “Ilm har narsadan yuqori, undan hech narsa yuqori bo'lolmaydi”, degan umrboqiy hikmatni tamoyil bilgan xalqning avlodlarimiz. Afsuski, mustabid tuzum davrida ilm va ilm ahlining qadrini atayin tushirishga harakat qilindi. Kitobdagi “Akademiklarni bilamizmi?” maqolasida shu haqda mulohaza yuritiladi. Shukurki, oqqan daryo oqaveradi. Mustaqillik sharofati bilan ilm va ilm ahlining qadri tiklandi. Kitobdagi atoqli biokimyogar, akademik Yolqin Turaqulov sharafiga yozilgan “Yolqin hayot” maqolasida ta'kidlanganday, olimning ilmiy kashfiyotlari uchun berilgan oliy darajadagi mukofotlar mustaqil O'zbekistonimizda akademiklarning hurmati yuksalayotganidan dalolatdir.

Yana e'tiborli jihati, muallif o'zi tarjima qilgan “Mening Dog'istonim” kitobidan ibrat olgan holda maqolalari mazmun-mohiyatiga singgib ketadigan she'rlarini havola etgan. Ishonchimiz komil, Asror Mo'minning kitobxonlik va ilm olishga da'vat etuvchi ushbu kitobi o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilinadi.

Malika UBAYDULLAYEVA

Murojaat

21-aprel kuni Yozuvchilar uyushmasida edim. “Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ijodkorlar bilan uchrashuv o'tkazayapti. Siz ham kiring, biror masalangiz bo'lsa, aytasiz” deyishdi. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Samarqand viloyat qo'g'irchoq teatri ikki yildan buyon bolalarga atab yozilgan “Ali Qushchi” nomli sahna asarim uchun qalam haqini bermay, meni ancha ovora qilayotgan edi. Shu esimga tushdi...

Teatrda adabiy emakdosh edim. Davlat buyurtmasi asosida to'rtinchi fasl uchun bolalarga atalgan “Ali Qushchi” asari ustida ishlay boshladim. Mirzo Ulug'bek saroyi-yu Ali Qushchining bolaligi haqida bir oydan ortiq vaqt mobaynida ma'lumot yig'dim. Senariy qoralamasi va sinopsisi tayyor bo'lgach, rejis-

Qalam haqini kim to'lab beradi?

syor Farhod Mirzayev bilan Toshkentga keldik. Loyihamiz baholandi, badiiy kengashdan o'tdi, tasdiqlandi, mo'maygina pul ajratiladigan bo'ldi. Ammo...

Teatr rahbari Feruz Majidovning tanish-bilish akt-yorlarini ishga olishi-yu, yoqtirmaganlarini quvishi, teatrni xususiy mulkiga aylantirib olgani yoqmasdi menga. Teatrta talaygina homiylik yordamlari berilgan, qayta rekonstruksiya qilish uchun pul ajratilgan. Ammo ajratilgan mablag'lardan qanchalik to'g'ri foydalanildi, bu masala so'roq ostida.

Bir safar gilam ustida gapimiz qochdi. Teatrta berilgan qizil gilam faqatgina Toshkentdan “mehmon”lar kelsagina solinar, ular ketgach “kir bo'lib qoladi” deb yig'ishtirib olinardi. Men bu gilam murg'ak bolalarining oyoqlari sovuq qotmasligi uchun berilganini aytib, bir necha bor qayta to'shatdim. Direktorning qattiq jahli chiqdi.

Farhod Majidov Rossiya teatrlarini o'rganib kelish uchun Moskvaga ketdi. Yordamchi rejissyor bilan ikkita spektakl sahnalashtirdik. Ijodiy ishga bo'lar-bo'lmasga direktorning aralashishini xohlamas, adabiy emakdosh vazifasi nimadan iborat ekanini unga tushuntirishga harakat qilardim.

Adabiy emakdosh repertuarlarni shakllantiradi, bas-takor va dramaturglar bilan ishlaydi, asarlarni ko'rib chiqadi, mualliflar bilan shartnoma imzolaydi, tavsiya qiladi, tahrir qiladi...

Afsuski, bizda aksariyat adabiy emakdoshlar teatr direktorlarining yugurdagiga aylanib qolgan. Chunki direktor ishga oladi, aytganini qilmasa, ishdan chetlatadi. Ba'zi teatrlarda umrida biror marta badiiy asar yozmagan, hatto Navoiyning biror g'azalini tahlil qila olmaydigan, so'zdagi ega-kesimdan, tashbehdan bexabar odamlarni adabiy emakdosh qilib tayinlangani odamning kulgisini qistatadi...

Direktor bilan oram buzilgach, doim sahna uchun jon koyitadigan, biroz bo'lsa-da meni qo'llagan haqiqiy jonkuyar, professional aktyorlar ishdan olina boshladi. Keyinroq navbat menga ham yetdi.

Men teatrdan ketgach uzoq izlanishlarim natijasi bo'lgan “Ali Qushchi” asari Farhodning sa'y-harakatlari bilan sahnalashtirildi. Rejissyor plagiatlik qildi demoqchimasman. G'oya ikkalamizniki. U asar ustida qayta ishlagan. Biroq asl poydevor – senariy menga tegishli. Ya'ni mening ismim bilan ro'yxatdan o'tgan senariy o'z-o'zidan boshqa muallif nomidan sahnalashtirilayapti. Nahotki Madaniyat vazirligida bu kabi holatni nazorat qiladigan biror sho'ba bo'lmasa?!

Ishdan ketgach ham direktordan bir necha bor qalam haqimni to'lab berishini so'radim. U turli bahonalar bilan gonorar berishni paysalga solib kelmoqda. “Ali Qushchi” spektakli ko'plab tomoshabinlar mehrini qozondi, mukofotlarga ham sazovor bo'ldi. Abatta bu meni quvontiradi. Lekin mehnat va mashaqqatlarning huzurini sen emas, boshqalar ko'rsa, asosiy vazifasi ijod ahlini qo'llab-quvvatlash bo'lgan tashkilotdan bir ijodkor sifatida yillar davomida qalam haqini ololmay yursang... Bu juda kulgili hol. Madaniyat vazirligidan bu masalani hal qilib berishini so'rab qolaman.

Talant TOLERANT

Yaxshilar yodi

TARIX KO'ZGUSIDAGI YORQIN XOTIRALAR

Hozir kimga qaramang, vaqt tez o'tib ketayotganidan noliydi. Kunlar, haftalar, oylar, yillar g'izillab o'tib boryapti. Ba'zan odam hech narsaga ulgurmay qolyapti. Ilm-fan, texnika rivojlanib borgani sayin jarayonlar ham tezlashadi. Dunyo bo'ylab tarqalgan axborot besh daqiqadan keyin eskiradi. Shu bilan muvofiq ravishda vaqtimizdan ham baraka ko'tarilmoqda. Kecha eshakda yurgan odam bugun uchqur mashinada yuribdi, kompyuterlar barcha yozuv-chizuvning o'mini bosayapti. Lekin baribir vaqt yetmayapti.



Allomalar oxir zamon yaqinlashishi bilan vaqtning barakasi ko'tariladi, ilgari odamlar ma'lum bir vaqtda qilgan ishni oxir zamon odamlari o'shan-cha vaqtda qilib ulgurmaydilar, degan fikrni bildirgan. Hayotning o'zi qisqa, buning ustiga fursat g'animat ekan. Bulung'ur tumanidagi 3-maktabda ko'p yillar rahbarlik qilib, shu muassasada tarix va o'lkashunoslik muzeyini tashkil etgan O'zbekiston Respublikasi xalq maorifi a'lochisi Abirqul Bo'tayev shuni oldindan bilganda, o'z umri davomida ko'proq savob ishlarni bajarishga harakat qildi, kecha-yu kunduz tinim bilmadi.

U o'z mehnati, fidoyiligi, bag'rikengligi bilan Bulung'ur xalqi hurmat-ehtimomiga sazovor bo'lgan ma'rifatli tarixchi olim edi. Abirqul aka ko'p yillar davomida yoshlarga ustozlik qildi, odamoxunligi, mehribonligi bilan nom qozondi. Farzandlariga yaxshi tarbiya berdi, o'qitdi, ularni oliy ma'lumotli qildi. Nevara-chevaralari bilan baxtli hayot kechirdi. Uning Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlarini hali ham ko'pchilik yaxshi eslaydi.

Abirqul aka yashashdan maqsad faqat boylik orttirish emas, balki jamiyatdagi turli qatlamlar turmush tarzini ham e'tiborga olish, kerak bo'lganda, ularga yordam qo'lini cho'zish, moddiy va ma'naviy ko'maklashish har birimizning burchimiz bo'lishi lozim derdi. O'z hayotini mol-dunyo to'plash bilan o'tkazadigan odam qattiq adashadi. Jamiyatning har bir a'zosi mamlakat iqtisodiy qudratiga hissa qo'shishi, yurti obod aylashi, nochorlarning turmush sharoitini yaxshilashga hissa qo'shishi, kamxarj oilalarga, yolg'iz keksalarga, beva-bechoralarga ko'mak berishi, ularni moddiy jihatdan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi kerak deb hisoblar edi.

Mohir pedagog 1947-yil 4-fevralda Bulung'ur tumani Qiyon qishlog'ida tug'ildi. Maktabni bitirib Samarqand davlat universitetining tarix fakultetida tahsil oldi. 19 yoshidan boshlab tumanidagi 24-maktabda o'quvchilarga saboq bera boshladi. 1980-yildan to umrining oxirigacha avval 3-maktabning direktor o'rinbosari, keyinchalik direktor bo'lib ishladi.

Abirqul aka o'zi boshqargan jamoada izlanuvchanligi, tashabbuskorligi bilan e'tibor qozondi. U tashkil etgan tarix va o'lkashunoslik muzeyi hozir ham turli kasb egalari, faxriylar, maktab o'quvchilari bilan gavjum. Bu bejiz emas, albatta. Bundan 45 yil muqaddam tashkil etilgan bu muzey ayni paytda nafaqat Bulung'ur tumanida, balki Samarqand viloyat maktablari qoshida tashkil etilgan muzeylar ichida eng yirik, tarixiy eksponatlarga boy muassasalardan sanaladi.

Ikki xonadan iborat, 120 kvadrat metr joyni egallagan ushbu muzeyda ayni paytda mingdan ziyod eksponat ko'z qorachig'idek saqlanmoqda. Abirqul akaning safdoshlari, shogirdlarining xotirlashicha, fidoyi muallim ko'p yillar davomida o'zi yashagan qishloq tepaliklaridan topilgan ko'plab osori-atiqalarni yig'ib yurgan. Saripultepa, Davlat tepa, Bosmachi ko'prik, Kampir devol va boshqa tarixiy joylardan turli asrlarga mansub ko'plab noyob topilmalar – mehnat qurollari, sopol idishlar, eski tangalar, kulolchilik buyumlari va boshqa turli xil mis idishlar, ko'zalar chiqqan. Abirqul Bo'tayev xalqimiz o'tmishiga oid eksponatlarni avaylab-asrash va kelajak avlodga yetkazish uchun ana shu xayrli ishga qo'l uradi.

Bu yerdan uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, xotin-qizlar paranjilari, minsak, tumatoylar, taqinchoqlar, soch

tupaklari, inqilobgacha amalda bo'lgan pullar, hunarmandchilik, kulolchilik, misgarlik, yog'och o'ymakorligiga oid buyumlar, arab alifbosida chop etilgan kitoblar va boshqa turli xil yodgorliklar o'rin olgan.

Dastlabki omochlar, pluglar, yog'och panshaxalar, ip yigiradigan charhlar, don maydalaydigan yorg'uchoq, Xitoy chinilari, arab munchoqlari, tangali javaklar, XV–XVIII asrlarga oid qora chiroqlar, qoraqalpoq sirg'alari, g'alvirak sirg'alar, manglayqosh, X asrdagi Ismoil Somoniy, XV asrdagi Amir Temur tangalari, XIX–XX asrlarga taalluqli bo'lgan to'qima ust-boshlar, chimmatlar, ot-ulov anjomlari, patefon, "Zinger" qo'l mashinasi, sal kam 50 litr sig'imli xum, ko'zalar, V–VIII asrga oid arxeologik topilmalar, sopol haykalchalar, shuningdek, dastlabki sotsialistik beshyilliklar hamda kollektivlashtirish davrini aks ettiruvchi tarixiy hujjatlar bugungi kunda muzeyning eng nodir eksponatlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, muzeyda 20 dan ortiq stendlar tashkil etilgan. Shuningdek, ushbu hududda sho'ro tuzumi davrida faoliyat yuritgan sovxoz, maktab tarixi, yosh o'lkashunoslar faoliyatiga oid 10 dan ziyod albomlar bor. Stendlar tarixiy lavhalarga, hujjatlariga, fotosuratlariga boyligi bilan bu yerga tashrif buyurayotgan kishilarning diqqatini jalb etmoqda.

Maktab muzeyi o'z oldiga tarixiy topilmalarni topish, ularni o'rganish, tadqiq qilish, muzeyni eksponatlar bilan boyitish jarayonida yoshlarni o'tmish madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Muzey o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar, yodgorliklarga, xalqimizning o'tmishiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda, ular qalbida ona tabiat, o'lka boyliklarini avaylab-asrash his-tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Maktab o'qituvchilari o'quvchilarga fan asoslaridan ta'lim-tarbiya berish jarayonida muzey eksponatlaridan ko'rgazmali vosita sifatida keng foydalanishmoqda. Keyingi yillarda ushbu muassasada bir necha marotaba tuman maktablari tarix, geografiya fanlari o'qituvchilarining hamda yosh o'lkashunoslar to'garaklari rahbarlari uchun ko'rgazmali seminarlar tashkil etildi.

Muzeyni yangi-yangi eksponatlar bilan boyitish, bu yerdagi tarixiy yodgorliklarni ehtiyot qilib saqlashda muzey kengashi boshqaruvi va mutasaddilari katta mehnat qilib kelmoqda. Ayniqsa, maktabda darslarni jonli, qiziqarli o'tkazishda ko'rgazmalilik muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'rganilayotgan materiallarni o'quvchilar ongiga yetkazishda ko'rgazmali qurollar, tarixiy va arxeologik topilmalar, tarixiy hujjatlar asosida berilgan bilimlar ular xotirasida uzoq saqlanib qoladi, dars samaradorligini oshiradi.

Muzeyni tashkil etish jarayonida ko'ngilli ravishda ekspeditsiya uyushtirgan o'quvchilar tomonidan tepaliklar-

dan qazib olingan har qanday topilma kim tomonidan, qayerdan, qachon topilgani qayd etish daftariga yozib qo'yiladi. Topilgan materiallar ekspeditsiyadan keyin o'lkashunoslik to'garagi a'zolari tomonidan o'rganiladi, tadqiq etiladi, tegishli xulosalar qilingandan keyin muzey kengashiga topshiriladi. O'tgan yillar davomida Abirqul Bo'tayev boshchiligidagi tuzilgan ekspeditsiya a'zolari 20 dan ortiq etnografik, numizmatik, folklor, arxeologik ekskursiyalar uyushtirib, fan uchun qimmatli bo'lgan juda ko'p tarixiy topilmalar to'pladi.

O'sha yillari arxeologik topilmalarni o'rganish va tadqiq etishda ekspeditsiya a'zolari Abirqul Bo'tayev boshchiligidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan yaqindan aloqa o'rnatadi. Institut mutaxassislari bir necha marta maktab o'lkashunoslik muzeyiga kelib, arxeologik materiallar nomi, kelib chiqishi, mazmuni, qaysi davrga oidligini aniqlab beradilar.

O'lkashunoslik materiallaridan tarix darslarida foydalanish ko'rgazmalilik mazmunini kengaytiradi, bayon etilayotgan materialni konkretlashtiradi, o'quvchilarda konkret tarixiy tasavvur va ong-shakllantiradi, o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilar tarixiy o'tmishni jonli tarzda idrok etishining o'ziga xos psixologik holatini vujudga keltiradi.

Darslarda arxeologik materiallardan foydalanish faqat ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirib qolmasdan, balki o'quvchilarni tadqiqotga qiziqtiradi va fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi. Buni qalbdan chuqur his qilgan Abirqul Bo'tayev o'z shogirdlariga, kelgusi avlodga ana shunday ta'lim-tarbiyani meros qilib qoldirdi.

Maktabda Abirqul Bo'tayevning izdoshlari ko'p. Ular o'quvchilarga puxta bilim berishda muzeyning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanib kelmoqda. Tarixchi olimning bu ibratli tajribasi Bulung'ur tuman o'qituvchilari o'rtasida keng ommalashtirildi. Mazkur maktabda tarix fani o'qituvchilari va o'lkashunoslik to'garagi rahbarlarining doimiy ko'rgazmali seminarlar o'tkazilib kelinmoqda. Bu seminarlarda "Maktabda o'lkashunoslik materiallaridan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish", "Maktabda o'lkashunoslik muzeyi tashkil etish", "Tarix darslarida mahalliy materiallardan foydalanish" kabi mavzularda davra suhbatlari o'tkaziladi.

Abirqul Bo'tayevning bosib o'tgan hayot yo'li, umri davomida ko'rsatgan saxovat va himmati nafaqat yoshlarga, balki barcha-barchaga o'rnak va namunadir. U har kuni bir insonning ko'nglini olmasa, kimgadir yordam bermasa, o'sha kunni kun demasdi. Ayniqsa, bilimga chanqoq yoshlarni ko'rsa, ularni o'z yoniga olardi, iloji boricha qo'llab-quvvatlab, qo'lidan kelgancha ko'mak berardi.

Abirqul Bo'tayev harakatchan, tashkilotchi inson edi. O'z mehnati bilan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tib, rahbarlik darajasigacha yetishdi, katta jamoaga bosh bo'lib, ularning boshini bir joyga birlashtirdi. Tinib-tinchimas, sog'lom fikrli, hamisha xushchaqchaq va sermulo-haza edi. Uning mazmunli hayot yo'li, erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatlari haqidagi tarix ko'zgidagi yorqin xotiralar ulg'ayib kelayotgan yoshlarga hozir ham o'rnak va namuna bo'lib kelmoqda.

Nurulloh OSTONOV,
jurnalist

Yaxshilar yodi



O'zbekiston geologiya sohasi rivoji haqida so'z yuritilganda, yer qa'rining sir-asrorlarini ilmi, fidoyiligi va mashaqqatli mehnati bilan o'rganishga munosib hissa qo'shgan zahmatkash insonlar nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi. Ana shunday fidoyi mutaxassislardan biri – Lev Mixaylovich Gleyzerdir. U o'zining sermazmun hayoti, samarali mehnati va boy tajribasi bilan mamlakatimiz mineral-xomashyo bazasini mustahkamlash va rivojlantirish yo'lida sezilarli iz qoldirdi.

Lev Gleyzer Ukrainaning Vinnitsa viloyatida tavallud topgan. Yoshlik chog'idanoq tabiatga bo'lgan qiziqishi, bilimga chanqoqligi va izlanishga moyilligi uni geologiya faniga yo'naltirdi. 1958-yili u M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlab, muhandis-geolog mutaxassisligini egalladi. Aynan shu

amaliy tajribasi Sharqiy O'zbekistonda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berish hamda Chotqol-Qurama mintaqasining metallogenik potentsialini munosib baholashda muhim ahamiyat kasb etdi. L.M.Gleyzer ishtirokida ishlab chiqilgan uslubiyotlar va ilmiy-amaliy yondashuvlar boshqa ko'plab

Hayotini geologiyaga bag'ishlagan inson

yildan boshlab uning butun mehnat faoliyati O'zbekiston bilan chambarchas bog'landi.

Uning geologiya sohasidagi katta yo'li 1958-yili Chotqol geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida geolog sifatida boshlandi. O'sha yillarda Chotqol-Qurama hududi o'zining murakkab geologik tuzilishi, tabiiy boyliklari va foydali qazilmalar istiqboli bilan alohida ahamiyat kasb etardi. Bunday murakkab hududda faoliyat yuritish esa chuqur bilim, mas'uliyat, sabr-toqat va qat'iyat talab qilardi. Lev Gleyzer aynan ana shunday sinovli sharoitlarda o'zini yuqori saviyali mutaxassis sifatida namoyon eta oldi.

1960–1976-yillar davomida u O'zSSR Fanlar akademiyasining "Geologiya va geofizika instituti"da ilmiy xodim sifatida samarali faoliyat olib bordi. Mazkur davrda u geologiya-qidiruv amaliyotini ilmiy-tadqiqotlar bilan uzviy bog'lagan holda, geologiya fanining nazariy asoslarini rivojlantirishga ham munosib hissa qo'shishga alohida e'tibor qaratdi.

L.M.Gleyzer ishtirokida olib borilgan kompleks izlanishlar natijasida Nurlikon (Shavazsoy) litiy konining sanoat ahamiyati amaliy jihatdan asoslab berildi hamda u geologik tuzilishi va genezisiga ko'ra, mintaqadagi noyob obyektlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Rahbarlik va tashkilotchilik maktabi

1976-yili Lev Gleyzer yana Chotqol geologiya-qidiruv ekspeditsiyasiga qaytib, geologiya bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Bu davr uning amaliy tajribasi rahbarlik salohiyati bilan uyg'unlashgan bosqich bo'ldi. 1980-yili "Toshkentgeologiya" birlashmasida katta geolog, 2000-yildan boshlab esa "Sharqiy O'zbekiston" davlat geologiya korxonasida bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat olib bordi.

Lev Mixaylovichning boy ilmiy va

konlarni qidirish ishlari jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanildi.

Davlat zaxiralari komissiyasidagi mas'uliyatli yillar

2001–2011-yillar davomida Lev Gleyzer Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha Davlat komissiyasida bosh geolog lavozimida ishladi. U oltin, volfram, uran, neft va gaz, gidromineral resurslar, qurilish xomashyosi hamda boshqa mineral xomashyolar bo'yicha zaxiralarni hisoblash va baholash ishlari-ga uslubiy jihatdan rahbarlikni amalga oshirdi. Uning ishtirokida 400 dan ortiq geologik-iqtisodiy hisobotlar ekspertizadan o'tkazildi va bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qildi.

Geologning ana shunday serqirra faoliyati zahirida bitta ulug' haqiqat mujassamdir: yerosti boyliklarini o'rganish – bu shunchaki kasbiy vazifa emas, balki mamlakat ravnaqi va iqtisodiyot rivoji uchun fidokorona xizmat hamdir. Lev Mixaylovich aynan shu e'tiqod bilan yashadi, izlandi va mehnat qildi.

Foydali qazilmalarning bashorat resurslarini baholash va geologiya-qidiruv ishlarini normativ-huquqiy ta'minoti yo'nalishiga hissa qo'shgan mutaxassis Lev Gleyzer 2011-yil 3-avgustdan boshlab "Mineral resurslar instituti" davlat muassasasida foydali qazilmalarning bashorat resurslari va zaxiralarni baholash bo'yicha bosh mutaxassis sifatida sermahsul faoliyat yuritdi, yangidan yangi konlarni oddiy raqamlar va miqdoriy ko'rsatkichlar emas, balki iqtisodiyotdagi muhim o'sish nuqtalari sifatida baholadi. Shu bois uning har bir xulosasi va yondashuvi ortida hayotiy tajriba, bilim va ulkan mas'uliyat mujassam edi.

U geologiya-qidiruv ishlarining barcha bosqichlarini tartibga soluvchi yangi me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, amaldagi hujjatlarni esa zamonaviy ilmiy-texnik talablar asosida takomil-



lashtirish borasida ham yetakchi mutaxassis sifatida faol ishtirok etdi.

Uning bevosita ishtirokida tayyorlangan 46 ta me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar amaliyotiga joriy etildi. Mazkur hujjatlar sohadagi ishlarning samaradorligini oshirish, geologiya-qidiruv ishlarini tizimli yo'lga qo'yish, ilmiy asoslanganlik va amaliy aniqlikni kuchaytirishda muhim o'rin tutdi.

Uning Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi barcha korxona va tashkilotlar bilan uzviy va samarali hamkorligi ham alohida e'tiborga loyiqdir. U respublikaning qator yirik oltin konlari – O'rtaliq, Omontoytov, Sarmich, Biran, Saribotir, Tomdibuloq, Qizilolma, Kauldi va boshqa zaxiralarni hisoblash, sanoat konditsiyalarini ishlab chiqish hamda ularni o'zlashtirishning maqsadga muvofiqligini uslubiy jihatdan asoslashga qaratilgan texnik-iqtisodiy asosnomalar hammuallifi sifatida ham katta hurmat qozondi.

U qayerda faoliyat yuritmasin, o'z bilimini faqat bugunning vazifalariga emas, balki ertangi taraqqiyot ehtiyojlariga ham safarbar etgan inson edi. Shu ma'noda, uning Mineral resurslar institutidagi faoliyati nafaqat alohida bir davr, balki geologiya-qidiruv ishlari uslubiyoti maktabining yangi bosqichga ko'tarilishida muhim o'rin egalladi. Lev Gleyzerning bu boradagi mehnati ilm bilan sanoat, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning yorqin namunasi bo'lib qoldi.

Xotira – ilm va vijdon bilan yozilgan hayot

Mustaqil O'zbekiston sharoitida L.Gleyzerning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatning iqtisodiy qudrati, sanoat salohiyati va strategik barqarorligi ko'p jihatdan yerosti boyliklarini puxta o'rganish,

xolis baholash va o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. U anashuezgu va ulkan vazifa uchun o'z umrini bag'ishladi hamda geologiyani shunchaki kasb deb emas, balki Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va kelajak avlodlar manfaatiga xizmat qiladigan sharaflı missiya deb bildi.

Lev Gleyzer Respublikaning mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi hamda "Mineral resurslar instituti" davlat muassasasi tomonidan ko'p marotaba Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Shuningdek, u "Yer qa'rini o'rganish a'lochisi" ko'krak nishoni, "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni, "O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan mukofotlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining Faxriylari safidan munosib o'rin olgan.

Lev Mixaylovich Gleyzerning hayoti – mehnat, halollik va fidoyilik timsoli edi. U o'z kasbiga sidqidildan xizmat qilgan, sohaga umr bo'yi sodiq qolgan, mas'uliyatni esa sharafl deb bilgan inson edi. Uning qat'iyyati, prinsipialligi va talabchanligi, avvalo, o'ziga nisbatan yuksak mezon qo'ya bilganida namoyon bo'lardi. Ana shu fazilatlar uni nafaqat kuchli mutaxassis, balki yuksak irodali va pok vijdonli inson sifatida ham ajratib turardi. Uning atrofida ishlaganlar uchun u nafaqat hamkasb yoki ustoz, balki soha sha'ni, kasb mas'uliyati va insoniy fazilatlar uyg'unlashgan yorqin namuna bo'lib qoladi. Uning yorqin xotirasi, boy kasbiy me'rosi va ibratli hayot yo'li hamkasblari, shogirdlari va geologiya sohasi fidoyilari qalbida doimo yashaydi.

Maqsud ISOQOV,
geologiya-mineralogiya
fanlari doktori,
"Mineral resurslar
instituti" DM direktori

Buxoro shahridagi Xoja Nurobod ko'chasida nazarnoil maqbara bor. Maqbara ichida tug' ko'tarilgan. Lekin bu yer biror avliyo qabri yoki qadam-josi emas. Bu yerda Hazrat Porsoning kutubxonalarini bo'lgan ekan. Dunyo-ning biror joyida KITOB hurmati uchun tug' ko'tarilganini ko'rganmisiz? Kitobni avliyo deb bilganlar baxtiyordirlar.

Mulohaza

Navoiyxonlik, bedilxonlik, masnaviyxonlik va...

Bundan ancha yil avval yondaftarimga “Kitob o'qimaydigan kimsalar bilan suhbatim ob-havo haqida bo'ladi”, deb yozib qo'ygan ekanman. Shunga yana ko'zim tushishi bilan qalbimda mutolaani hayotining mazmuniga aylantirgan insonlar bilan suhbatlashish, aniqrog'i, adabiy hodisalarga befarq bo'lmagan, hayrati o'lmaganlarning Adabiyot haqidagi fikrlarini mushtariylarga yetkazish niyati uyg'ondi.

Sadriiddin Salim BUXORIY

Bir yerda soatlab o'tiraveradi. Qaniydi, barcha yoshlarimiz kitobni ham xuddi shunday ishtiyoq bilan mutolaa qilishsa. Mutafakkirlardan biri “Men o'zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan roziman” degan ekan. Darhaqiqat, kitob eng yaxshi tarbiyachi va ustozdir. U yolg'izlikda suhbatdosh, jonsiz, ammo sodiq do'stdir. Esimda, 5-sinfda o'qib yurgan paytimiz ona tili va adabiyot o'qituvchimiz bizga “Tog'da o'sgan bola” asarining boshlanish qismini aytib berib, qolganini o'zingiz topib o'qing, degan edi. Shunda bir sinf o'quvchilar kutubxonadan shu kitobni topib, navbat

Jamiyat gazeta o'qimasa...

“Kitob, gazeta-jurnal o'qiydigan odamga pand-u nasihat darkor emas. Ammo gazeta o'qimaydigan odamlardan qo'rqish kerak. Ayniqsa, u rahbar bo'lsa...”

Xurshid Do'stmuhammad

Ustoz Xurshid Do'stmuhammadning “Hurriyat” gazetasining 2024-yil 17-iyul sonida yuqoridagi gapini o'qib qoldim. Bu inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat. Zamonamizda millat ma'rifatparvarlari kim? Albatta, ziyolilar! Ular safida yozuvchi-shoirilar, jurnalistlar, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va jamiyatning jami ilg'or vakillarini sanab o'tish mumkin. Eng muhim bo'g'in esa zimmasiga lavozim vazifasi yuklatilgan rahbarlardir.

Taraqqiyot insonning dunyoqarashi va tafakkuri o'sishi, ma'naviyatining yuksalishida namoyon bo'ladi. Bugun ziyolilar orasida kitob, gazeta-jurnal o'qimaydigan qanchadan qancha “ulug'lar” borligini tasavvur qilib ko'rganmisiz? Oddiy xalq uchun muhim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ibratning oshkora yo'qolib borayotganligi achinarli hol. Ziyolilar, ayniqsa rahbarlarning gazetalarga obuna bo'lmayotgani, xalqning e'tiborsizligi odatiy holga aylanmoqda. Gazeta o'qimaydigan, smartfon bilan qurollanib yo'lga otlangan avlodga guvoh bo'lyapmiz. Afsuski, biz ham shu jarayonning ishtirokchisimiz.

Xalqni ma'rifat izlashga chorlash har bir ziyoli insonning ma'naviy burchidir. Avvalo har qanday tashkilot, muassasa, korxona rahbarining o'zi gazeta va jurnallarga obuna bo'lsa, hech shubhasiz, qo'l ostidagi mutaxassis xodimlar ham obuna bo'ladi. Turli vaj-karson to'qishdan tiyilib, xalqimizning ma'naviy manfaati uchun amaliy ishga qo'l urish fursati yetdi.

Internetdagi qisqa va qolipga solingan axborot, videoroliklar qiziqarli tuyuladi, ammo ularning ma'naviy qiymati-chi? Qalbga nur bermaydigan, tafakkur qilishga undamaydigan bunday tomoshagoh ixlosmandlaridan kelgusida nima kutish mumkin?! Shu o'rinda internetdagi mahsulotlar va gazeta materiallarini mantiqiy, adabiy, ilmiy jihatdan taqqoslab ko'ring, vaziyat oydinlashadi.

Millat ma'naviyatini yuksaltirish, ma'rifatni targ'ib qilishda internet tarmoqlaridagi xabarlarining o'zi yetarli emas. Tabiiyki, ularni to'ldirish uchun mohiyatan salmoqli kuchga ega gazeta va jurnallarga ehtiyoj seziladi. Gazetadan yuz o'girgan jamiyat internet o'zamlaridagi shov-shuvlar iskanjasida qalqib o'tayotgan oqimga o'xshaydi. Ulug'vor maqsadlardan mahrum qilingan, ma'rifiy yo'ldan og'ib ketayotgan, qalb qo'ri so'nib borayotgan odamlarga duch kelasiz. Nahot ijtimoiy tarmoqlarga kirib, soatlab adashib yurish insonlarning oddiy hayot tarziga aylanib ulgurdi? Inson qalbi uyg'oq bo'lishi uchun ham qalb mehnat bilan muntazam shug'ullanib turishi zarur. Qalb mehnati mutolaadir.

Tan olish kerak, mamlakatimizda juda ko'plab iqtidorli yoshlar ilm yo'lidan borib, salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Biroq ziyolilar va rahbarlarning o'zi kitob, gazeta-jurnal o'qimasa ekan, jamiyatda ma'naviy yuksalish yuz berishi dargumon. Kitob o'qish hamda gazetaga obuna bo'lish majburiyati ziyolilarni bezovta qilmas, ma'naviyat va ma'rifatga chorlamasa ekan, xalq yillar o'tgan sayin jaholat botqog'iga botib boraveradi. Sarmoyani ilm-u irfonga sarflash shubhasiz porloq kelajakka zamin bo'ladi. So'nib borayotgan gazeta mash'alini qayta yondirish ham, uning ziyosidan bahramand bo'lish ham o'z qo'limizda.

Xo'sh, tabiiy ofatlar, qirg'inbarot urushlar nimadan ogohlantiradi?! Ko'z o'ngimizda Orolning qurishi, oqibatda uning atrofida hayot inqirozining tuzsimon belgilari paydo bo'lishi hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Tashvish chekar ekanmiz, sabab va oqibatlar haqida bosh qotiramiz. Ana shunda tabiat injiqliklari oldida ojizligimizni chuqurroq his qilamiz. Ammo har bir bosgan xato qadamimiz izidan ofat unib chiqishi mumkinligini tasavvurimizga sig'dira olmaymiz. Befarqligimiz oqibatida ma'naviy olamimizni yemiruvchi zilzilalar paydo bo'lishi haqida o'ylab ham ko'rmaymiz. Millatning ma'naviy manfaati haqida bong urish fursati yetmadimi?! Kitob haqida ko'p gapirib, kitob o'qimayotgan elatga aylanib qolmadikmi?!

Ha, saodatli umr kechirish uchun moddiyatga qanchalik ehtiyojimiz bo'lsa, ma'naviyat mujdalariga shunchalik muhtojligimiz bor. Faqat moddiy ehtiyojlardan qoniqib yashash, ma'naviy yuksalish haqida qayg'urmaslik ayni g'ofillikning o'zi emasmi?! Shu narsa ayonki, ma'naviyat-ma'rifat yog'dusi atrofida birlashgandagina xalq idroki o'sib, irodasi qudratli kuchga aylanadi.

Muslima YODGOROVA

Shaxsiy kutubxonangiz bormi?

Olloh “Bo'l” so'zini aytganidan keyingina o'n sakkiz ming olam yaralgan. Shu bois ham so'zning qudrati yuksak. Agar ushbu mo'jiza ato etilmaganida qanchalar g'ariblashgan bo'lardik. Modomiki shunday ekan, bugun O'zbekistonda bizning ma'naviyatimizni boyitadigan kitobga, to'g'rirog'i, mutolaaga e'tibor qay darajada? Nima qilsak kitobxonlik darajasi ortadi?

Avvallari navoiyxonlik, bedilxonlik, masnaviyxonlik bo'lgan. Xo'sh, bugun-chi, serialxonlik, vaynixonliklar avj olmadimi? Ijtimoiy tarmoqqa bandi bo'lish xavfi kun sayin ortib borayapti. O'zi televizordagi behayo, oldi-qochdi ko'rsatuv, filmlardan bosh ko'tarmaydigan ayrim ota-onalar farzandiga “kitob o'qi!” deyishida qanday mantiq bor? Padar va volida shaxsiy o'rnak ko'rsatmaganidan keyin 30 nafar bolaga dars berayotgan o'qituvchidan nimani kuta olamiz?..

Shaxsiy o'rnak

Yaratganga behisob shukrki, ustozlar orasida ba'zi ota-onalar allaqachon qilishi kerak bo'lgan ishni bajarayotganlari ham bor. Masalan, buxorolik bir o'qituvchi(u kamtarligidan maqolada ismini ko'rsatishimizni ham istamadi) o'zi dars berayotgan bolalarining tug'ilgan kunlarida ularga kitob sovg'a qilar ekan. Muallimning aytishicha, dastlab mutolaaga deyarli befarq o'g'il-qizlar bugun shu darajaga yetishibdik, ularning o'zlari kutubxonalaridan badiiy kitoblarni izlab, saralab o'qishga sho'ng'ib ketishibdi. Asosiysi, o'qituvchi ularning dunyoqarashi o'sgani, hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq emasliklari haqida faxrlanib so'zlaydi.

Birinchidan, kimning uyida shaxsiy kutubxonasi bo'lsagina, uning bolalari kitobga oshno tutinadi. Hammayog'ingni tilla suvi yugurtirilgan, yaltiroq narsalar bilan bezasang-u, jigarbanding – qolar izingga to'g'ri ta'lim-tarbiya bera olmasang, bundan battari yo'q...

“Kitobni o'qib, mazmunini so'zlab ber”

Jondor tumanidagi 1-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Saltanat To'xtamishева:

– Qiziq, agar bola kompyuter yoki telefonidagi o'yinlarga berilib ketsa, uning fikrini bo'lish yoki o'rnidan turg'izish qiyin bo'ladi.



bilan o'qiganmiz. Hozir o'zim ham shu usulni qo'llayman. Bundan tashqari, dars davomida o'quvchilar bilan o'zi o'qigan asar haqida bir necha daqiqalik suhbat o'tkazib, “Haftaning eng kitobxon o'quvchisi”ni aniqlab olaman. Farzandlarimiz hech kimdan kam bo'lmasligi uchun yaxshi yedirishga, kiydirishga harakat qilamiz. Tug'ilgan kunlarida qimmatbaho sovg'alar, kiyim-kechak, o'yinchoqlar, telefon, velosiped, hatto avtomashina sovg'a qilamiz. Lekin farzandimizga kitob sovg'a qilib uning birinchi sahifasiga dil izhorlarimizni yozganmizmi? Qo'lga kitob tutqazib, “Bolam, mana shu kitobni o'qib chiqib, menga mazmunini so'zlab ber”, deganmizmi? Koshki shu savolga barcha ota-onalar ijobiy javob bera olganida edi. Bu borada faqatgina o'qituvchi emas, ota-onalar ham mas'uliyatni his qilishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Oxirgi “poyezd”

Qaniydi, har oyning oxirgi shanbasi “Adabiyot va mutolaa kuni” deb e'lon qilinsa. Shu kuni yangi nashrlar haqida qizg'in suhbatlar tashkil etilsa. Joylarda mushoiralar, she'rxonlik kechalari, ijodiy uchrashuvlar o'tkazilsa. Ta'lim muassasalariga ota-onalar imkon qadar ko'proq jalb qilinsa. Yana bir jihat. Biz adabiy-badiiy nashrlarga obuna bo'lish ko'rsatkichi borasida ham aslo maqtan olmaymiz...

Mana, ma'naviy olamimizga bir qur nazar tashladik. Bu esa hali qilinadigan ishlarimiz ko'pligini ko'rsatayapti. Asosiysi, hamjihatlikda hikmat ko'p. Shuni unutmasak, loqaydlikni o'zimizdan uzoqroqqa itqitsak bo'lgani. Biz katta yo'lga chiqqanmiz. Muhimi, bu oxirgi “poyezd” emas...

Obid QO'LDOSH,

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Buxoro

Zamonaviy ta'lim

Sun'iy intellekt va ta'lim-tarbiya: yangi davrning tarbiyachi ustoz



XXI asr insoniyat tarixida eng tez o'zgarayotgan davr sifatida kirib keldi. Har bir sohada raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt (SI – Artificial Intelligence) inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bugun biz telefon, kompyuter yoki internetdan foydalanar ekanmiz, aslida sun'iy intellekt bilan bevosita muloqot qilamiz: tarjima dasturlari, ovozi yordamchilar, tahliliy platformalar, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlar – barchasi SI mahsulidir.

Ammo eng qiziq jihati shundaki, sun'iy intellekt endilikda faqat texnik yoki ishlab chiqarish sohalarida emas, balki ta'lim va tarbiya tizimida ham faol qo'llanilmoqda. Ta'limdagi bu o'zgarishlar yangi imkoniyatlar bilan birga, muhim savollarni ham yuzaga keltirmoqda: “O'qituvchi rolini SI egallaydimi?”, “Insoniylik va axloqiy qadriyatlar saqlanib qoladimi?”, “SI orqali tarbiyalangan avlod qanday bo'ladi?” Shu savollar atrofida fikr yuritish bugungi kunda nihoyatda dolzarb.

Sun'iy intellekt nima va u qanday ishlaydi?

Sun'iy intellekt – bu inson tafakkurini, o'rganish va qaror qabul qilish jarayonini taqlid qiluvchi dasturiy tizim. U katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilib, o'rganadi va keyingi bosqichda mustaqil yechim taklif qilish yoki javob berish qobiliyatiga ega bo'ladi. Masalan, ChatGPT, Google Gemini, Grammarly, Duolingo Max, Khanmigo kabi tizimlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqotni yengillashtirib, shaxsiy o'qituvchi rolini bajara oladi. SI o'quvchi xatolarini kuzatib, darajasini aniqlaydi, takrorlanadigan mashqlarni avtomatik ishlab chiqadi, o'quv jarayonini shaxsiylashtiradi.

Ta'limdagi inqilob: SI orqali yangi o'qitish modeli

Sun'iy intellekt ta'limda tub burilish yasamoqda. Ilgari o'qituvchi 30 nafar o'quvchiga bir xil dars o'tgan bo'lsa, bugun SI har bir o'quvchiga shaxsiy o'quv yo'lini belgilab bera oladi.

1. Individual yondashuv. Masalan, Duolingo ilovasida har bir foydalanuvchi natijalariga ko'ra mashqlar darajasi avtomatik o'zgaradi. Bu “adaptiv ta'lim” modeli deyiladi. O'quvchi qaysi so'zlarda xato qilganini tizim eslab qoladi va aynan shu so'zlar asosida yangi mashqlar yaratadi. Shu tarzda, har bir o'quvchi o'z tezligida o'rganadi – bu differensial yondashuvning avtomatlashtirilgan shaklidir.

2. Baholashning adolatli tizimi. Inson o'qituvchi ham xatoga yo'l qo'yadi – charchoq, subyektivlik yoki hissiyotlar ta'siri bilan. Ammo SI tizimlari o'quvchining javobini faqat mazmun va natija asosida tahlil qiladi. Masalan, SI Essay Scoring Systems yoki Turnitin SI Grade kabi platformalar o'quvchilar inshosini

mazmun, mantiq va til tuzilishiga ko'ra baholaydi.

3. Tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish. SI asosidagi Google Speech Recognizer, ELSA Speak kabi dasturlar o'quvchining talaffuzini analiz qiladi, har bir tovushdagi xatoni aniqlaydi va og'zaki javobni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu jarayon nafaqat ingliz tili, balki o'zbek, koreys yoki arab tillarini o'rganishda ham samarali.

4. Raqamli ta'lim muhiti. SI yordamida yaratilgan Learning Management Systems (LMS), masalan, Moodle, Canvas yoki Google Classroom kabi platformalar o'qituvchilarga dars rejalashtirish, test tuzish, statistika olish va o'quvchi faoliyatini nazorat qilishda katta yordam beradi.

SI va tarbiya: insoniylik mezon

Ta'limning asosiy maqsadi: bilim berish emas, insonni komil shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu bois sun'iy intellekt joriy etilayotganda “tarbiya” masalasi eng muhim o'rinda turadi. SI o'quvchini tahlil qiladi, lekin unga mehr, empatiya, imon, e'tiqod bera olmaydi. Bu – faqat ustoz yuragidan chiqadigan nurlardir. Masalan, SI o'quvchining xatolarini ko'rsatadi, ammo o'quvchi ruhiy tushkunlikka tushganda uni ruhlantira olmaydi. Shu jihatdan, SI o'qituvchini emas, o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Shuning uchun dunyoning ilg'or pedagogik maktablari, jumladan, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya tajribasida “AI teacher + human mentor” modeli qo'llaniladi. Bu modelda SI darsni boshqaradi, lekin tarbiyaviy suhbatni inson olib boradi. Sun'iy intellektning quyidagi afzalliklari tahsinga sazovordir:

1. Ta'limda shaxsga yo'naltirilganlikni ta'minlaydi. Har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga mos sur'atda o'qiydi.
2. Baholashning aniqligi va shaffofligini oshiradi. SI inson hissiyotidan xoli, adolatli tahlil qiladi.
3. Vaqt tejiladi. O'qituvchi ko'p vaqtini nazorat ishlarini tekshirishga emas, ijodiy darsga sarflaydi.
4. Chekka hududlardagi ta'lim sifati yaxshilanadi. Internet orqali SI darslari eng uzoq joydagi o'quvchiga ham yetadi.
5. Til o'rganish uchun real muhit



yaratadi. Masalan, ChatGPT yoki Replika kabi SI chatlar bilan o'quvchi ingliz tilida erkin muloqot olib borishni mashq qiladi.

Albatta, tanganing ikki tomoni bo'lganidek, sun'iy intellektning xavf va cheklovlari ham yo'q emas, jumladan:

1. Axloqiy muvozanatning yo'qolishi xavfi. SI insoniy qadriyatni tushunmaydi. U faqat ma'lumot asosida qaror qiladi, bu esa tarbiyaviy nuqtayi nazardan xavfli bo'lishi mumkin.

2. O'qituvchining rolini pasaytirish ehtimoli. Ba'zi tizimlarda SI ustoz o'rnini to'liq egallaydi. Bu o'quvchining ijtimoiy muloqot ko'nikmasini zaiflashtiradi.

3. Ma'lumot xavfsizligi muammolari. SI tizimlarida o'quvchi ma'lumotlari serverlarda saqlanadi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini talab qiladi.

4. Ijodkorlikning kamayishi. SI tayyor javob beradi, bu esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni sekinlashtirishi mumkin.

5. Til va madaniyat masalalari. SI ko'p hollarda ingliz tilidagi manbalar asosida ishlaydi, natijada mahalliy madaniyat va qadriyatlar chetda qolishi mumkin.

O'zbekiston tajribasi: raqamli ta'lim sari islohotlar

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Raqamli O'zbekiston – 2030” konsepsiyasi va ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha Prezident farmoni bugun amalda o'z samarasini ko'rsatmoqda:

- “AI-lab” markazlari – Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona shaharlarida o'quvchilarga sun'iy intellekt asoslarini o'rgatuvchi laboratoriyalar tashkil etiladi.
- Raqamli o'qituvchi loyihasi – o'qituvchilar uchun SI yordamida test, topshiriq va reyting tizimlarini shakllantiruvchi platforma ishlab chiqilmoqda.
- Onlayn baholash tizimlari – ayrim

oliy ta'lim muassasalarida SI asosida avtomatik test tahlili joriy etilmoqda.

– Pedagoglar tayyorlash – pedagogika universitetlarida “SI pedagogika” yo'nalishi bo'yicha tajriba sinflari ochilmoqda.

Bu jarayonlar O'zbekiston ta'limini raqamli transformatsiyaning markaziga aylantirmoqda.

Tahliliy xulosa: SI o'qituvchimi yoki yordamchi?

Sun'iy intellekt o'qituvchi o'rnini egallay olmaydi – u o'qituvchini kuchaytiradi. Chunki o'qituvchining asosiy quroli – insoniylik, mehr va ruhiy aloqa. SI bilim beradi, ammo tarbiya – bu yurakdan yurakka o'tadigan jarayon. Shu bois kelajakdagi eng muvaffaqiyatli o'qituvchi – bu SI texnologiyasidan ustalik bilan foydalana oladigan, ammo insoniylikni yo'qotmagan raqamli pedagogdir.

Sun'iy intellekt bugungi ta'limni tubdan o'zgartirmoqda. U o'qituvchiga yordam beradi, o'quvchini o'rganish jarayoniga chuqur jalb etadi, adolatli baholashni ta'minlaydi. Shu bilan birga, u tarbiyaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga ololmaydi. Demak, kelajak ta'limining formulasi quyidagicha:

SI + Insoniylik = Sifatli ta'lim va ma'naviyatli tarbiya

Sun'iy intellektni qo'rqinch emas, imkoniyat sifatida qabul qilgan ustozgina yangi davrning haqiqiy tarbiyachisi bo'la oladi. Sun'iy intellekt – bu tahdid emas, imkoniyat. U ta'lim-tarbiyada inson tafakkuri va texnologiya uyg'unligini ta'minlaydi. Demak, yangi davrning haqiqiy tarbiyachisi – bu sun'iy intellektidan foydalana oladigan, ammo insoniylikni yo'qotmaydigan ustozdir.

Adash RUSTAMOVA,
Samarqand davlat chet tillar
instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Voqeyiy hikoya

Boshlang'ichdan yuqori sinfga o'tganman. Bolaligimdan ertak eshitishni yoqtirganim uchun onam menga ertak bilan birga bo'lib o'tgan voqealardan ham so'zlab berardi. Onamning navbatdagi bu hikoyasi aslida ertakka o'xshaydi, biroq u menga qattiq ta'sir qilgan, hech qachon esdan chiqara olmasam kerak. Onam yoshligida onasidan qanday eshitgan bo'lsa, asl holicha hikoya qilgandi.

– Eski hovlimiz bo'lardi, – deya hikoya qilgan ekan buvim. – U paytlari ortiqcha shoxlari kesilmay, jinko'chalarining har ikki tomonida shoxlari hurpayib, baland-baland o'sgan tut daraxtlari hovlimizda ham bor bo'lib, atrofga vahima solardi. Besh-olti yoshda, mittigina qizaloqlik vaqtim. Otam, onam dalaga ishlagani ketganida ko'pincha uyda buvim bilan qolardim. Ba'zan eski yog'och so'rida ovqatlanib o'tirsak, xona eshiklari birdan ochilar, so'ng yana zichlanib yopilardi. Uyda buvim ikkimizdan boshqa hech kim yo'q bo'lsa, deb ajablangancha:

– Buvi, birov kirdimi? – deb so'radim.

– Yo'q, hech kim kirmadi. Bu hovli egalari, ular shunaqa, borligiga ishora qilishyapti, kirib-chiqib yurishadi, lekin birovga zarari tegmaydi, – dedi buvim o'sha yoqdan ko'z uzmay. Shu vaqt xona derazasi ham birdan taraqlab ochildi-yu, yana yopildi. Qo'rqanimdan buvimning pinjiga tiqildim.

Hovlimizning bir burchida katta yong'oq, tut daraxtlari bo'lib, ularning ostida bir uyum tuproq to'planib, do'nglik hosil bo'lgandi. Buvim shu do'nglik-

ka tez-tez chiroq qo'yar edi. Chiroq quritilgan qamish shoxlaridan bir-bir yarim qarich uzunlikda sindirilib, paxtadan pilik o'ralar, yog'ga botirilib, do'nglikka aylana shaklda suqilib, gugurt chaqib yondirilar, buni buvim “chiroq qo'yish” deb atardi. Odat-

da
“chiroq qo'yish”
chorshanba kuni amalga oshirilardi. Nega bunday qilyapsiz, deb so'rasam, buvim:

– Uy egalari shu yerda, do'nglikda goh o'ynayotgan yosh bolalar, goh kattalardek ko'rinish beradilar. Chiroq qo'ysam, ular tinchlanadi, yo'qsa, besaranjom bo'lib qolishadi, – deb tushuntirdi. Buvimdan eshitganlarimni dadamga, ayamga aytсам, ular “buving keksa, zeriksa kerak, chiroq qo'yish bir ermak, xolos”, deb qo'yaqolishdi. Yoki meni qo'rqmasligim uchun vahimaga tushishmasdi. Buvimning “ermak”lariga ham ko'nikdim. Bu narsa hatto yodimdan ko'tarilayozgandi. Ammo yana bir mud-

hish voqea sabab bo'ldi-yu, men buvimning “ermak”lariga chippa-chin ishonch hosil qildim.

Buvim hovlini pokiza tutishga harakat qilar, hammamizga tahoratda yurishni, har joyga chiqindi tashlamaslikni, ozodalikka e'tiborli bo'lishimizni tayinlardi. Ukam tug'ildi-yu, aqiqa to'yiga tayyorgarlik boshlandi. Qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar aytilib, risoladagidek to'y ham o'tdi. Mahallamizda Badalboy ismli norg'ul, savlatli, xo'ppa semiz amaki to'ylarda oshpazlik qilardi. Shu odam aqiqa to'yida xizmatda bo'ldi. To'ydан bir necha kun o'tgach, Badalboy amaki to'satdan betoblanib yotib qolibdi

O'tmish ertagi

deb eshitdik. Aytishlaricha, uni qop-qora, butun borlig'ini yung qoplagan odam ta'qib qilayotgan ekan. Badalboy ota ko'chaga chiqolmay qoldi. Chunki birov bilan gaplashib turganda bexosdan faqat ungagina ko'ringan jin paydo bo'lar, uni chirpirak qilib aylantirar, boshqalar amakini telba bo'lib qolibdi, deb o'ylab o'zini olib qocharkan. Badalboy amakini ko'p shifokorlar davolashga urinishdi, qorilarga o'qitdi, ammo darddan qutulolmadi. Qo'qqisdan chirpirak bo'lib aylanib, yerga yuztuban yiqilar, og'zidan ko'pik sachratib yotib qolar, kingadir “qo'yib yubor” deya yolvorardi. Bu holat ancha davom etib, uni tutqanoq dardiga yo'liqqanga chiqarishdi.

Badalboy ota o'ylab-o'ylab, dardiga shifoni o'zi izlashga qaror qildi. Bir kuni

buvimni xotini orqali uyiga chaqirtiradi. Hol-ahvol so'rashgach:

– Xola, dardim og'ir. O'sha siznikidagi to'y xizmatidan keyin shu ahvolga tushdim. Uyingizda biror alomat sezilmasmidi? – deb so'raydi kirtaygan ko'zlari bilan buvimga iltijoli boqib.

– Nega so'rayapsan, bolam? – ajablanibdi buvim.

– To'y kuni hovli burchagida yong'oq, tut daraxtlari ostidagi do'nglikka ko'zim tushgandi. O'sha yerni kovlab, ovqat qoldiqlari, chiqindilarini to'ktirgandim. Yuvindilarni ham o'sha joyga chuqur kovlatib, ko'mdirib yubordim.

Buvim bu gaplarni eshitib, zudlik bilan uyga qaytadi. Do'nglikni mahalladan bir necha o'smir yigitlarga kovlatib, ko'milgan chiqindilarni oldiradi, tuproqni tozalaydilar. Mushk, anbar sepib, atrofini shinam holga keltiradi, so'ng buvim chiroq qo'yib, Qur'on tilovat qiladi, g'ayblardan oshpazning qilgan ishi uchun uzr so'raydi. Badalboy otani chaqirtiradi. Ikkalovi yer egalariidan afv etishni so'raydilar. Badalboy amaki shu voqeadan keyin xiyol o'tmay darddan butkul sog'ayib ketadi. Farishtali joylarga chiqindi uyumlarini to'ktirmaydi. O'sha voqeadan so'ng uni hech kim ta'qib qilmaydi. Shundan buyon buvijonimning hech qachon chiqindini har yerga tashlamanglar, chunki chiqindi bor joyda albatta jinlar bo'ladi, ular sizga zarar yetkazishi mumkin, degan gaplari aslo yodimdan chiqmaydi. To'g'ri, buvimning vafotidan keyin “chiroq qo'yish” odati ham unutildi, biroq hovlini sarishta tutish, gul, rayhonlar ekib, parvarishlash avloddan avlodga meros bo'lib qoldi.

Umida EGAMBERDIYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
a'zosi

Ta'zim qilay ustozga

Osmonga yetsa qo'lim,
Yashnasa o'ng-u so'lim,
Oyga tutashsa yo'lim,
Ta'zim qilay ustozga.

Vatan so'zin uqtirgan,
Kitobga ishq yuqtirgan,
Doim izlanib yurgan,
Ta'zim qilay ustozga.

Harflarni tanitib,
Yozuvda qilib tartib,
Siyoh qo'limni artib,
Ta'zim qilay ustozga.

Yomonimni yashirgan,
Yutug'imni oshirgan,
Erkalagan, toshirgan,
Ta'zim qilay ustozga.

Fikrim bo'lsin mushtarak,
Chin dildan aytay tilak,
Bayramingiz muborak,
Ta'zim qilay ustozga.

Qalb me'morlariga

Balki mening oyga yetar oyog'im,
Quyosh kabi porlab ketar charog'im,
Shodlik bilan nurga to'lar qarog'im,
Lablarim pichirlab degayman asta:
Shu emasmi uning o'git, zahmati?!

Gohida oromsiz, tunni tun demay,
Hatto, o'z bolasin g'amini yemay,
Tuzgan rejasidan tolmay, og'ishmay,
El-u yurt koriga ham kamarbasta:
Shu emasmi uning halol mehnati?!

Nigohlaringizda vaqt ziynati,
Mujgonlaringizda kasb ziynati,

Siz-la faxrdadir o'zbek millati,
Vatan ishq bilan doim vobasta:
Shu emasmi shonli mehnat rohati?!

Ign-la qazganda ilmni har chog',
Ushshoq qalbga bilim quyganda har chog',
Go'yo zulmatlarga yoqasiz chiroq,
Qalbingiz ezgulik ila payvasta:
Bu albatta sharaf – kasb ziynati!

Ustoz – muallim...

Murg'ak qalbga otash solguvchi,
Ne dillarda mangu qolguvchi,
Mehnatidan rohat olguvchi,
Qalbi oftob, so'zlari halim,
Sizdir o'sha, ustoz muallim.

Dolzarb mavzu

Bir quchoq gul

(Drabbl)

Sultonali vaqtida oilasining qadriga yetmadi. Mardikorlik qilib topgan pulini ko'ngilxushlik, ichkilikka sarfladi. Ota-onasi bilan bir hovlida yashagani sabab hatto farzandlarining tarbiyasi ham ularga qoldi. Ro'zg'orga esa xotini kasalligi uchun beriladigan nafaqa puli zo'rg'a yetardi. Oradan vaqt o'tib, ayoli olamdan o'tdi. Ammo u o'zgarmadi...

Bugun xotiniining tug'ilgan kuni. Shuning uchunmi uni tushida ko'rdi. Qaysidir gulzorda qo'l ushlashib yurishganmish. “Adajonisi” deb erkalashlarini esladi.

Sultonali hovlisidan bir quchoq atirgul uzdi. Ularni xotiniining qabri ustiga to'shadi va “Meni kechir” deya yig'lab yubordi. Afsus, u insonlarning tirikligida qadriga yetish kerakligini tushunganida juda kech bo'lgandi.

Po'lat MANSUR,
faxriy o'qituvchi

Ko'p narsani yo'qdan yo'ndirib,
Quloqsizni gapga ko'ndirib,
Topshiriqni doim do'ndirib,
Suxanida tarbiya-ta'lim,
Sizdir o'sha, ustoz muallim.

Har so'zini o'ylab so'zlagan,
Yaxshilikni mudom ko'zlagan,
Shogird uchun yonib-bo'zlagan,
Dahanida kalomi ilm,
Sizdir o'sha, ustoz muallim.

Darslarida doim hikmat bor,
O'zi sodda, himmati bisyor,
Hayot borki, poklik sizga yor,
Shijoati, g'ayrati lim-lim,
Sizdir o'sha, ustoz muallim.

Aziz muallim...

Mashaqqat-la siz tortib alam,
Qo'llaringa tutqazib qalam,
O'qish, yozish mashqin chindanam,
O'rgatgansiz, aziz muallim.

Bezatilgan ignabarg archa,
Kiprigimga qo'ngan qor parcha,
O'yinchoqlar, qo'limga sharcha,
Tutqazgansiz, aziz muallim.

Bolalikning quvnoq sururin,
O'smirlikning gavharin, durin,
Yoshligimning qaynoq g'ururin,
Ko'rsatgansiz, aziz muallim.

Mayoq bo'lib ilm-u ziyoda,
Martabangiz bo'ldi ziyoda,
Kam bo'lmangiz ikki dunyoda,
Aziz ustoz, aziz muallim.

Abdurashid ERGASHEV,
Asaka tumanidagi
26-maktab o'qituvchisi



Tajriba

Gamifikatsiya va o'yin – ta'limning yashirin kuchi

Tasavvur qiling: sinfxona jimjit. Ammo bu sukunat zerikishdan emas, aksincha, bolalar diqqat bilan bir o'yin ichida “yashamoqda”. Kimdir savolga javob topish uchun bosh qotirayapti, boshqasi jamoasi bilan strategiya tuzmoqda, yana kimdir rolga kirib, hayotiy vaziyatni sahnalashtirmoqda. Bu oddiy o'yin emas – bu ta'limning eng samarali va tabiiy shakllaridan biri.



O'yin orqali ta'lim berish metodlari (game-based learning) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlarining ta'limga kirib kelishi yangi hodisa emas. Tarixiy manbalarga ko'ra, XVII asrda yashab ijod qilgan chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni “o'yin bilan uyg'unlashtirish” g'oyasini ilgari surgan. U bolalarni majburlash emas, balki qiziqtirish orqali o'qitish zarurligini ta'kidlagan. Keyinchalik XVIII–XIX asrlarda Jan-Jak Russo va Fridrix Fryobel kabi pedagoglar bolalar tarbiyasida o'yin faoliyatining muhimligini ilmiy asoslab berdi. Ayniqsa, Fryobel tomonidan yaratilgan “bolalar bog'chasi” tizimi o'yin asosidagi ta'limning amaliy modeliga aylandi.

XX asrga kelib, o'yin metodlari psixologik tadqiqotlar bilan yanada boyitildi. Masalan, pedagog va psixolog Lev Vigotskiy fikricha, o'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, Jan Piaget bolalar tafakkuri rivojlanish bosqichlarini o'rganib, o'yin orqali o'rganish ularning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir qilishini isbotlagan.

O'yin orqali ta'lim berish – bu pedagogik jarayonda rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv usullar orqali bilim berishdir. Ushbu metod bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi, chunki o'yin ular uchun eng yaqin va tushunarli faoliyat shaklidir. Natijada o'quvchilar bilimni majburiy emas, balki ichki motivatsiya asosida, qiziqish bilan o'zlashtiradi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham o'yin metodlarining samaradorligini tasdiqlamoqda. Masalan, UNESCO va OECD hisobotlarida o'yin asosidagi ta'lim o'quvchilarning faolligini oshirishi, bilimni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam berishi qayd etilgan. Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra:

- o'yin orqali o'qitilgan o'quvchilar an'anaviy usulda o'qiganlarga nisbatan materialni 20–30% yaxshiroq eslab qoladi;
- interaktiv o'yinlar diqqatni jamlash vaqtini sezilarli darajada oshiradi;
- rolli o'yinlar ijtimoiy ko'nikmalar (muloqot, hamkorlik, liderlik) rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar bilimlarni mustahkamlash va takrorlashda samarali vosita hisoblanadi. Ular o'quv jarayonini jonlantiradi, murakkab mavzularni soddaga va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Rolli o'yinlar esa bolalarga real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, bu esa ularning ijtimoiy tajribasini boyitadi.

O'yin metodlarining yana bir muhim jihati – ijodkorlikni rivojlantirishidir. Bu jarayonda o'quvchilar erkin fikrlaydi, muammolarga noodatiy yechimlar topishga harakat qiladi. Bu esa kreativ tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'yin faoliyati o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi sifatlarni ham rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'yin metodlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamli ta'lim vositalari, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali gamifikatsiya elementlari keng qo'llanilmoqda. Masalan, *Kahoot!*, *Quizlet* va *Duolingo* kabi platformalar o'yin elementlari orqali o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi. Ular ball to'plash, reyting tizimi, mukofotlar kabi mexanizmlar orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Shu bilan birga, o'yin metodlaridan foydalanishda metodik yondashuv muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'yinning maqsadini aniq belgilashi, uni o'quv dasturiga moslashtirishi va natijadorlikni baholay olishi zarur. Aks holda, o'yin faqat ko'ngilochar vositaga aylanib qolishi mumkin. Samarali o'yin aniq didaktik maqsadga ega bo'lishi, o'quvchilar yoshiga mos kelishi, natijasi baholanadigan bo'lishi va faol ishtirokni ta'minlashi kerak.

Shoista BOBOJONOVA,
Bo'stonliq tumanidagi
20-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Kadirova Gulnora Xasanovnaning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy ilmiy kengashning 2026-yil 29-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Radjabova Gulchexra Baxodirovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “Yallig'lanishning immunologik markerlariga asoslangan toksik jigar zararlanishlarini kompleks baholash va differensial diagnostikasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-53; e-mail: buhorodti@exat.uz

Gaffarov Laziz Xasanovichning 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligi bo'yicha “Raqamli ta'lim muhitida professional ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.16.06 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 8-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200100, Buxoro shahri, Q.Murtazayev ko'chasi, 15-uy.
Tel/faks: (65) 223-28-83, 223-78-84; e-mail: info@bstu.uz

Artikova Maxfuza Ravshanovnaning 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “Ispan gazeta tili janr xususiyatlarining lingvopragmatik aspekti” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
G-9 “A” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzdju@uzswlu.uz

Tursinkulov Nurali Anarbeyevichning 09.00.06 – G'oyalar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Erkinlik g'oyasining ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi mafkuraviy ahamiyati” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 2-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Adilova Madina Niyozovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Qin va bachadon aplaziyasida tuxumdon genezli giperandrogeniyasi bo'lgan bemorlarni olib borishni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 4-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektor@sammi.uz

Yevstafeyev Yevgeniy Aleksandrovichning 04.00.13 – Neft va gaz konlarini o'zlashtirish hamda ishlatish ixtisosligi bo'yicha “Ko'p komponentli konlardagi flyuidlarning fazaviy o'zgarishlarini modellashtirish orqali konlarni optimal ishlatish variantini asoslash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi “O'ZLITINEFTGAZ” AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 280-67-00, 256-66-48, 280-67-46; e-mail: liting@liting.uz

Qodirjonova Iqbola Bahodir qizining 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi(ingliz tili) bo'yicha “Amerika va o'zbek bolalar adabiyotida “yetim bola” obrazi: davr va ruhiyat(Kristofer Pol Kertis va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida)” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
G-9 “A” mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzdju@uzswlu.uz

Suyunova Gulnora Begaliyevnaning 06.01.09 – O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha “Do'lanazorlarda uchraydigan kasalliklar va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko'chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti “Manbashunoslik” kafedrası mudiri, professor Zumrad Rahmonqulovaga onasi
OYSARA ayaning
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrası professori Dilshodbek Urakovga otasi
JAMOLIDDIN otaning
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



Oliy ta'lim



Aqlli energiya tizimlari va innovatsiyalar

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan aprel oyi mamlakatimizda “Muhandislik oyligi” deb e’lon qilingan edi. Oylik doirasida texnika yo’nalishidagi OTMlarda turli tanlov va musobaqalar o’tkazilib kelinmoqda. Ikkinchi bor tashkil etilgan “Muhandislik oyligi”ning ochilish marosimi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida o’tkazildi.

Bugungi kunda energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ularni tejash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish global ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “Muhandislik oyligi” kabi tadbirlar yoshlarni energetika sohasida innovatsion yechimlar ishlab chiqishga jalb etish, ularning amaliy ko’nikmalarini oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadbir doirasida “Oliygoch kubogi” ixtirochilik tanlovining final bosqichi o’tkazilib, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-innovatsion loyihalar ko’rgazmasi tashkil etildi. Ko’rgazmada sun’iy intellekt, robototexnika, dron texnologiyalari va kiberxavfsizlik kabi yo’nalishlardagi ilg’or ishlanmalar namoyish etildi. Ayniqsa, energetikaga oid loyihalar alohida qiziqish uyg’otdi. “Energiya ta’minlash tizimlari” kafedrasida professor-o’qituvchilari va talabalari ham mazkur tadbirda faol ishtirok etdilar. Dotsent vazifasini bajaruvchi Natalya Amurova rahbarligida ishlab chiqilgan “GreenGrid Control” loyihasi sun’iy intellekt asosida ishlovchi aqlli energiya boshqaruv tizimi sifatida taqdim etildi. Ushbu tizim energiya resurslarini samarali taqsimlash, iste’molni optimallashtirish va energiya tejamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, dotsent Dilafruz Abdullabekova rahbarligida ishlab chiqilgan loyiha energetika tizimlarida energiya auditini sun’iy intellekt orqali avtomatlashtirishga qaratilgan. Ushbu raqamli yechim energiya sarfini tahlil qilish, yo’qotishlarni aniqlash va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tizim real vaqtda katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlab, tez va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Oliygochlar – startaplar generatori” tamoyili asosida faoliyat yuritib, yoshlarni innovatsion g’oyalar va amaliy loyihalar orqali qo’llab-quvvatlashda muhim o’rin egallamoqda. Universitetda shakllanayotgan innovatsion muhit talabalarga o’z g’oyalarini amaliyotga joriy etish, yangi texnologiyalarni o’zlashtirish va zamonaviy mutaxassis sifatida shakllanish imkonini bermoqda.

Dilshod ESHMURODOV,
TATU “Energiya ta’minlash tizimlari” kafedrasida mudiri,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Marifat

TA’SIS ETUVCHILAR:

O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
O‘zbekiston oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V- 6117. Tiraji-6878.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:
Tel/faks: (55) 512-01-50



“Marifat”dan materiallarni ko‘chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko‘chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

